

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

**BYUDJET HISOBI VA DAVLAT JAMG‘ARMALARI FAKULTETI**

**“PENSIYA ISHI” KAFEDRASI**

**XAKIMOVA DILNAVOZ MIRXOTAM QIZI**

**“IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA  
O‘RTA MAXSUS TA‘LIM TIZIMI XARAJATLARINI  
REJALASHTIRISH VA MOLIYALASHTIRISH”**

5231300 -“Pensiya ishi” bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”**

Fakultet dekani

\_\_\_\_\_ i.f.n., dots. O.Komolov

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2018 y.

**“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”**

“Pensiya ishi” kafedrasi mudiri

\_\_\_\_\_ i.f.n. B.Mamatov

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2018 y.

**Bitiruvchi:** 5231300 -“Pensiya ishi”  
ta‘lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi  
Xakimova Dilnavoz Mirxotam qizi

\_\_\_\_\_

**Ilmiy rahbar:**

\_\_\_\_\_ k.o‘q. B.Nurmuxamedova

## MUNDARIJA

	betlar
<b>KIRISH</b> .....	<b>3</b>
<b>1-BOB. O'RTA MAXSUS TA'LIM TIZIMI FAOLIYATINING TASHKILY, HUQUQIY VA MOLIYAVIY ASOSLARI.</b> ..	<b>8</b>
1.1. O'rta maxsus ta'lim tizimi faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari.....	<b>8</b>
1.2. O'rta maxsus ta'lim tizimi faoliyatini moliyaviy ta'minlash manbalari va davlat byudjetining o'rni.....	<b>13</b>
1-bob bo'yicha xulosa.....	<b>21</b>
<b>2-BOB. O'RTA MAXSUS TA'LIM MUASSASALARI XARAJATLARINI REJALASHTIRISH VA MOLIYALASHTIRISHNING AMALDAGI HOLATI</b> .....	<b>22</b>
2.1. O'rta maxsus ta'lim muassasalari byudjetini aniqlash amaliyoti.	<b>22</b>
2.2. O'rta maxsus ta'lim muassasalarida smeta xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish tartibi.....	<b>38</b>
2.3. O'rta maxsus ta'lim muassasalarida ish haqini rejalashtirish tartibi.....	<b>43</b>
2-bob bo'yicha xulosa.....	<b>49</b>
<b>3-BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA O'RTA MAXSUS TA'LIM MUASSASALARI XARAJATLARINI REJALASHTIRISH VA MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH</b> .....	<b>50</b>
3.1. Harakatlar strategiyasini amalga oshirish sharoitida o'rta maxsus ta'lim muassasalari faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish.....	<b>50</b>
3.2. O'rta maxsus ta'lim tizimi moliyaviy ta'minotini mustahkamlash yo'llari.....	<b>55</b>
3-bob bo'yicha xulosa.....	<b>61</b>
<b>XULOSA VA TAKLIFLAR</b> .....	<b>63</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI</b> .....	<b>66</b>

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** O‘zbekiston Respublikasida jamiyatning ma’naviy yangilanishi uchun, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish, jahon hamjamiyatiga uyg‘unlashish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkilotining 72-Assambleyasida so‘zlagan nutqida: “Bugungi kunda O‘zbekiston jadal rivojlanmoqda. Biz ajdodlarimizning donishmandlik an‘analariga amal qilib, teran anglagan holda, qat’iy islohotlarni amalga oshirmoqdamiz, mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirish yo‘lidan bormoqdamiz. Jamiyatimizda siyosiy faollik ortib bormoqda, barcha sohalarda chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Ulardan ko‘zlangan maqsad – “Inson manfaatlari hamma narsadan ustun” degan oddiy va aniq-ravshan tamoyilni amalga oshirish ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgan demokratik davlat va adolatli jamiyat barpo etishdan iborat”<sup>1</sup> ekanligini alohida ta’kidladilar. Haqiqatan ham, O‘zbekiston Respublikasida inson huquqlari va erkinliklari har taraflama qo‘llab-quvvatlanib kelinmoqda. Ushbu holat jahon hamjamiyati tomonidan ham alohida e’tirof etilmoqda.

Inson huquqlari va erkinliklari qatorida fuqarolarning ta’lim olish huquqi alohida o‘rin egallaydi. Ijtimoiy sohaning muhim, aytish mumkinki, markaziy tarkibiy qismlaridan biri – bu ta’lim tizimidir. Ta’lim tizimining ahamiyatini mazkur soha faoliyatining uzoq muddatli davrda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni belgilab berishi orqali izohlash mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasida ham “Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta’lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir”<sup>2</sup>, degan konstitutsion norma belgilab qo‘yilgan.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi. Xalq so‘zi gazetasi. 20.09.2017.

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014-y., 16-son, 176-modda.

O'zbekiston Respublikasida 1997-yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"-gi Qonun hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturining qabul qilinishi mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatining amaliy natijasi bo'ldi. Qonun va Dastur talablarini hayotga tatbiq etish ishlari mantiqiy uyg'unlikda uch bosqichda amalga oshirildi. Bu borada Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va 2004-yildan boshlangan maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturining ijrosi 2009-yilga kelib amalda nihoyasiga etkazildi: 9 yillik umumta'lim maktab bosqichini va 3 yillik o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'lim bosqichini o'z ichiga olgan uzluksiz yaxlit ta'lim tizimi yaratildi; mamlakat yoshlariga umumiy ta'lim bilan birga, zamonaviy kasb-hunarlarga ega bo'lish imkonini beradigan 12 yillik ta'lim tizimiga o'tish yakunlandi.

Lekin so'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar, iqtisodiyot taraqqiyotining zamonaviy talablari, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirish zaruriyati, axborot-kommunikatsion texnologiyalarining hayotimizga jadal kirib kelishi va boshqa shu kabi omillar ta'lim tizimining sifati va samaradorligi darajasiga alohida talablar qo'ymoqda, ta'limning barcha bosqichlari shakli va mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish, tashkiliy-huquqiy, moddiy-texnikaviy, ilmiy-uslubiy va iqtisodiy-moliyaviy masalalarini tanqidiy o'rganib chiqish va konstruktiv o'zgarishlarni amalga oshirishni talab etmoqda. Bu borada Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'zining "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" deb nomlangan ma'ruzalarida "ta'lim va ilm-fan, davlatning yoshlarga doir siyosatini amalga oshirish, ta'limning yangi, zamonaviy usullarini, jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish sohasidagi dolzarb vazifalarni amalga oshirish yoshlarimiz, jamiyatimiz va mamlakatimizning kelajagi uchun strategik ahamiyatga ega ekanini"<sup>3</sup> alohida ta'kidladilar. Ushbu ma'ruzada: "ta'lim muassasalarini, eng avvalo, kasb-hunar kollejlari oqilona joylashtirishni, shuningdek, iqtisodiyot, ijtimoiy soha va har bir

---

<sup>3</sup> Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: O'zbekiston, 2017. B. 23.

hududning zarur mutaxassislarga bo'lgan talabini to'g'ri aniqlashni tanqidiy tahlil qilish"<sup>4</sup> o'rta maxsus ta'lim tizimidagi eng muhim vazifalardan biri ekanligi ta'kidlandi. 2016-yilning yakunlariga bag'ishlangan bu ma'ruzada belgilab berilgan asosiy yo'nalishlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni bilan qabul qilingan "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da o'z ifodasini topdi. Xususan, Harakatlar strategiyasining 4.4-bo'limida ta'lim va fan sohasini rivojlantirish borasida "uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish"<sup>5</sup> vazifalari belgilab berildi.

Shu bilan birga, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limida uning sifati va samarasini oshirish bilan bir qatorda, tizimni moliyaviy ta'minlash muammolari ham islohotlarning markazida turgan masalalardan hisoblanadi. Bugungi kunda ta'lim muassasalarini o'quvchi soniga qarab moliyalashtirish mexanizmlarining joriy qilinayotganligi ta'lim tizimining iqtisodiy jihatlari va moliyaviy muammolariga boshqacha yondoshuvlarni talab etadi.

Mana shu holatlarni hisobga olgan holda, iqtisodiyotni modernizatsiyalash davrida o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimining moliyaviy masalalarini o'rganishning zarurligi mazkur bitiruv-malakaviy ish mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

**Tadqiqot predmetini** respublikamizda o'rta maxsus ta'lim muassasalari xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish bilan bog'liq tashkiliy, huquqiy-me'yoriy va moliyaviy munosabatlar tizimi tashkil qiladi.

---

<sup>4</sup> Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: O'zbekiston, 2017. B. 25.

<sup>5</sup>2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoniga 1-ilova. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.

**Tadqiqot obyekti.** Alohida olingan o'rta maxsus ta'lim muassasalari byudjetini bir talabaga o'rnatilgan bazaviy xarajatlar me'yorlari asosida aniqlash usul va mexanizmlarini joriy etish bilan bog'liq jarayonlar, shuningdek, O'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi, Toshkent shahar o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi boshqarmasiga qarashli bo'lgan Toshkent moliya va iqtisodiyot kolleji tadqiqot obyekti sifatida tanlangan.

**Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.** Mavzuimizning asosiy maqsadi zamonaviy sharoitda respublikamizda amalga oshirilayotgan o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimini yanada takomillashtirish, uning moliyaviy ta'minlanishi masalalarini o'rganish asosida o'rta maxsus ta'lim muassasalari xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish mexanizmlarini tatqiq qilish va uni yaxshilash bo'yicha asoslangan takliflar berishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi asosiy vazifalar belgilab olindi:

- o'rta maxsus ta'lim tizimi faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy asoslari va moliyaviy manbalarini o'rganish;
- o'rta maxsus ta'lim muassasalarini moliyalashtirish yangi usullarining mohiyati va afzalliklarini tatqiq qilish;
- o'rta maxsus ta'lim tizimida kasb-hunar kollejlarini o'quvchi soniga qarab moliyalashtirishni tatbiq etish tajribalarini tahlil qilish;
- o'rta maxsus ta'lim muassasalarida bir o'quvchini o'qitish xarajatlaridan kelib chiqib o'rnatilgan bazaviy me'yorlar asosida muassasa byudjetini rejalashtirish va moliyalashtirish amaliyotini o'rganish, hisob-kitoblar asosida muassasa byudjetini hisoblash tartibini ko'rsatib berish;
- olib borilgan tadqiqotlar asosida iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida o'rta maxsus ta'lim muassasalari taraqqiyotining moliyaviy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan takliflar ishlab chiqish va ularni nazariy jihatdan asoslab berish.

**Mavzuning nazariy-amaliy ahamiyati.** Bitiruv malakaviy ishning nazariy va amaliy ahamiyati unda o'rta maxsus ta'lim muassasalari xarajatlarini bir o'quvchini o'qitish xarajatlaridan kelib chiqib rejalashtirish va moliyalashtirish

tartiblari nazariy jihatdan o'rganilgan va bu usullarni takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Bitiruv-malakaviy ishi tarkibining qisqacha tavsifi.** Bitiruv malakaviy ishining tarkibi izlanishlarimiz oldiga qo'yilgan vazifalardan kelib chiqib belgilandi va u kirish, uchta bob, boblarga birlashtirilgan 7 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, mavzuning mazmunini ochib berishga xizmat qiluvchi ilovalardan iborat. Ishning hajmi 71 betni tashkil qiladi, ishda tahliliy materiallar 12 ta jadval, chizma va diagramma shaklidagi 5 ta rasmda aks ettirilgan.

1-bobda o'rta maxsus ta'lim tizimi faoliyatining nazariy va tashkiliy-iqtisodiy asoslari yoritilgan.

2-bobda o'rta maxsus ta'lim muassasalarini moliyalashtirish usullarining mohiyati va afzalliklarini tatqiq qilingan.


3-bobda o'rta maxsus ta'lim muassasalari xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, o'rta maxsus ta'lim muassasalari taraqqiyotining moliyaviy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan va nazariy jihatdan asoslab berilgan.

## **1-BOB. O'RTA MAXSUS TA'LIM TIZIMI FAOLIYATINING TASHKILY, HUQUQIY VA MOLIYAVIY ASOSLARI**

### **1.1. O'rta maxsus ta'lim tizimi faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari**

O'zbekiston Respublikasida Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ta'lim-tarbiya, ilm-fan, kasb-hunar o'rgatish sohalarini rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida barcha fuqarolar jinsi, irqi, millati, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar ta'lim olishda bir xil huquqlarga ega ekanligi belgilab qo'yilgan.

Ma'lumki, 1997-yilda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilindi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi doirasida amalga oshirilgan islohotlarning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat bo'ldi (1-rasm):




#### **1-rasm. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi doirasida amalga oshirilgan islohotlarning asosiy yo'nalishlari<sup>6</sup>**

- maktabgacha va umumiy ta'limni takomillashtirish;
- o'rta maxsus kasbiy ta'limni oqilona tashkil etish;
- ta'limni boshqarish va moliyalashtirishni yaxshilash;

<sup>6</sup> Nurmuxamedova B.I, Srojiddinova Z.X. "O'zbekiston respublikasida ta'lim xarajatlarini rejalashtirish". T.: "Info Capital Group". 2013. B.10.

– kadrlar tayyorlashning samarali tizimini yaratish.

“Ta’lim to’g’risida”gi Qonun hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga ko’ra, O’zbekiston Respublikasida ta’lim quyidagi ko’rinishlarda amalga oshiriladi (2-rasm):



**2-rasm. Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga ko’ra O’zbekiston Respublikasida ta’lim bosqichlari<sup>7</sup>**


Ta’lim tizimining umumiy boshqaruvini O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi amalga oshiradi. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasi alohida oliy ta’lim muassasalari, Toshket Islom universiteti, shuningdek, xalqaro xorijiy oliy ta’lim muassasalari (Moskva davlat universiteti, Vestminster Universiteti va hokazo) filiallarini bevosita boshqaradi.

O’zbekistonda ta’lim tizimi faoliyati bevosita 3 ta vazirlik - Xalq ta’limi vazirligi (XTV), Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi (OO’MTV) va Maktabgacha ta’lim vazirligi (MTV) amalga oshiradi.

Xalq ta’limi vazirligi “xalq ta’limi tizimini rivojlantirishga qaratilgan yagona davlat siyosatini amalga oshirish, umumiy o’rta va maktabdan tashqari ta’limni har tomonlama rivojlantirish, o’quvchilarning bilimi va ma’naviy-axloqiy

<sup>7</sup> “Ta’lim to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Qonunining 10-moddasi asosida. O’RQ-464-I-son. 29.08.1997. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018 y., 03/18/456/0512-son; 19.04.2018 y., 03/18/476/1087-son.

darajasini yanada yuksaltirish”<sup>8</sup> vazifasini bajaradi. XTV umumta’lim maktablari va maktabdan tashqari muassasalar faoliyati uchun mas’uldir. Vazirlik joylardagi tegishli ta’lim muassasalari faoliyatini metodik boshqaruvchi viloyat, tuman va shahar xalq ta’limi bo’limlariga ega.



**3-rasm. Ta’lim tizimining umumiy boshqaruvi chizmasi<sup>9</sup>**

Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi respublikada oliy va o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limiga rahbarlik qiluvchi davlat boshqaruv organi hisoblanadi. Vazirlik o’z faoliyatida O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisob beradi. Vazirlik tizimiga Oliy va o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limini rivojlantirish markazi, idoraviy mansub oliy o’quv yurtlari kiradi.

O’rta maxsus kasb-hunar muassasalari ustidan bevosita rahbarlikni OO’MTV tarkibidagi Kasb-hunar ta’limi markazi olib boradi.

<sup>8</sup> O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrdagi “O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi faoliyatini takomillashtirish to’g’risida”gi PQ-3304-son Qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 30.09.2017 y., 07/17/3304/0037-son.

<sup>9</sup> <http://www.ziyonet.uz> axborot-ta’lim tarmog’i ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilingandan so'ng O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 20-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi 341-sonli Qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzurida Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish markazi tashkil etilgan.

Rivojlantirish markazi oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va barkamol avlodni tarbiyalashga yo'naltirilgan o'quv-uslubiy, tashkiliy-huquqiy ta'minotni ishlab chiqish va zamonaviy pedagogik hamda axborot texnologiyalarini tatbiq etish bo'yicha ilmiy-uslubiy va ilmiy-tadqiqot muassasasi hisoblanadi.

Rivojlantirish markazining maqsadi – mamlakatning ustivor ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi hamda ta'limni rivojlantirishning jahon tendensiyalariga muvofiq oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimini me'yoriy-huquqiy va ilmiy-uslubiy ta'minlashdan iborat.

Ta'lim tizimini isloh qilish jarayoni mos huquqiy asosga tayanishi lozim, bu borada Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi, boshqa ijtimoiy dasturlar, hukumatning boshqa qarorlariga muvofiq amalga oshirilgan maqsadli chora-tadbirlar majmui ta'lim tizimi taraqqiyotidagi ijobiy tendensiyalar uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Ma'lumki, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturida "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining yangi tahrirdagi loyahasini ishlab chiqish va qabul qilish belgilangan<sup>10</sup>.

---

<sup>10</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-yanvardagi "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'grisida"gi PF-5308-sonli Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlar milliy bazasi: 06/18/5308/0610-son. 23.01.2018.

Mutasaddi vazirlik va idoralar mutaxassislari va ekspertlaridan iborat ishchi guruhi tomonidan ishlab chiqilgan “Ta’lim to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi qonunining yangi tahrirdagi loyihasi ayni kunlarda jamoatchilik tomonidan muhokama qilinmoqda.

O’tgan ikki yil, ya’ni 2016-2017-yillar mobaynida taraqqiyotning navbatdagi bosqichida jamiyatimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan yangilanishlarning mazmuniga mos ravishda ta’lim tizimini tubdan isloh qilishga qaratilgan muhim chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, ta’limning barcha bosqichlarini bugungi zamon talablaridan kelib chiqib takomillashtirish maqsadida O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 100 ga yaqin qaror va farmonlari qabul qilinib, izchillik bilan amaliyotga tatbiq etilmoqda.

Jumladan, mamlakatimizda Maktabgacha ta’lim vazirligi tashkil etilib, tizimni malakali kadrlar bilan ta’minlash, davlat va xususiy sheriklik asosida yaqin istiqbolda mamlakatimizda bog’cha yoshidagi bolalarni to’liq maktabgacha ta’lim muassasalariga qamrab olishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Keng jamoatchilik va ota-onalarning fikr va takliflari asosida yurtimizda 11 yillik majburiy maktab ta’limi qayta joriy etilib, o’rta maxsus kasb-hunar ta’limi optimallashtirildi. Oliy ta’lim muassasalariga qabul kvotalari ko’paytirildi, xorijdagi nufuzli oliy ta’lim muassasalari diplomlarini nostrifikatsiyalash tizimi soddalashtirildi, talab yuqori bo’lgan qator sohalar bo’yicha sirtqi ta’lim yo’lga qo’yildi hamda oliy ta’limdan keyingi ta’lim tizimi ham xalqaro andozalarga asosan takomillashtirildi.

Bugungi kunda mamlakatimizning istiqboldagi taraqqiyotini belgilab beruvchi eng muhim sohalardan biri bo’lgan ta’lim tizimidagi tub yangilanishlar, rivojlangan xorijiy davlatlarning ilg’or tajribalari milliy ta’lim tizimiga joriy etilayotganligi va bir qator xalqaro konvensiyalarning ratifikatsiya qilinganligi, shu bilan birga, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumat tomonidan qabul qilingan sohaga doir qaror va farmonlarni qonunchilikka muvofiqlashtirish zaruratidan kelib chiqib, ushbu yo’nalishdagi asosiy hujjat - “Ta’lim to’g’risida”gi

qonunning yangi tahrirdagi loyihasi ishlab chiqildi. Qonun loyihasini tayyorlash jarayonida 20 dan ortiq rivojlangan xorijiy davlatlarning ta'lim to'g'risidagi qonunchiligi o'rganilib, shu asosda yangi tahrirdagi qonun loyihasiga 36 ta yangi modda kiritildi. Amaldagi qonunning 33 ta moddasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Shuningdek, qonun loyihasida katta yoshdagilar ta'limi, maxsus ta'lim, inklyuziv ta'lim, davlat- xususiy sheriklik, ta'lim sohasidagi davlat nazorati, ta'lim muassasalarining o'zini o'zi baholashi, ta'lim sohasida eksperimental va innovatsion faoliyat kabi yangi normalar nazarda tutilmoqda.

Qonun loyihasini umumxalq muhokamasidan o'tkazish va ularning fikr-mulohaza hamda takliflarini olish maqsadida O'zbekiston Respublikasining interaktiv davlat xizmatlari yagona portaliga joylashtirildi.

Bu boradagi islohotlatning bosh vazifasi mamlakatimiz ta'lim tizimining fuqarolarning komil shaxslar bo'lib shakllanishiga yo'naltirilgan, inson omilini namoyon etadigan, mehnat bozori talablariga javob beradigan mutaxassislarni yetishtirib beradigan eng yaxshi an'analarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishdan iborat.

## **1.2. O'rta maxsus ta'lim tizimi faoliyatini moliyaviy ta'minlash manbalari va davlat byudjetining o'rni**


Ta'lim – bu jamiyatning strategik resursi va davlat hamda jamiyat qurilishida muhim ustuvorlik ekanligini hisobga olib, ta'lim tizimini boshqarishda davlat yetakchi rol o'ynaydi.

Bugungi kunda ta'lim tizimini moliyalashtirishning ko'pkanalli tizimi shakllangan bo'lib, moliyaviy resurslarning quyidagi manbalariga ega (4-rasm):

Davlatdan moliyalashtirish manbalari:

- davlat (respublika va mahalliy) byudjeti;

– davlat maqsadli jamg'armalari (masalan, Kitob jamg'armasi, Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi, Ta'lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasi).



**4-rasm. Ta'lim tizimini moliyalashtirish manbalari<sup>11</sup>**

Nodavlat moliyalashtirish manbalari:

- to'lov-kontrakt asosida o'qitishdan tushgan mablag'lar;
- ta'lim muassasalarining o'z tadbirkorlik faoliyatidan daromadlari va tushumlari;
- xorijiy kreditlar va grantlar;

<sup>11</sup> Nurmuxamedova B.I, Srojiddinova Z.X. "O'zbekiston respublikasida ta'lim xarajatlarini rejalashtirish". T.: "Info Capital Group". 2013. B.17.

- ota-onalarning (o'qitish uchun) to'lovlari, qo'shimcha pullik ta'lim;
- jamoatchilik yordamlari;
- boshqa xususiy manbalar (masalan, tadbirkorlar va homiylarning, hayriya tashkilotlarining moliyaviy yordamlari).

Mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish hamda ularning huquqlarini muhofaza qilish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2015-2017-yillar mobaynida davlat byudjetining qariyb 60 foizi ijtimoiy sohalarga yo'naltirilganligi, uchdan bir qismi ta'lim sohasiga safarbar qilinayotganligi ham kelajagimiz vorislariga bo'lgan g'amxo'rlikning yorqin ifodasidir.

Uzoq yillar mobaynida davlat byudjetining ijtimoiy sohalarni moliyalashtirishda yagona manba bo'lib kelganligi hech kimga sir emas. Ta'lim tizimi ham klassik ijtimoiy soha sifatida bir necha o'n yilliklar davomida to'lig'icha byudjetga qaram soha bo'lib kelgan. Hozirgi kunda ham byudjet xarajatlarining aksariyat qismi ta'lim tizimini ta'minlashga safarbar etilmoqda. Xususan, ta'lim sohasiga ajratilgan byudjet mablag'lari davlat byudjetidan amalga oshirilgan jami xarajatlarning o'rtacha 33-34 foizini tashkil etib kelmoqda.

Bundan tashqari, davlatning maqsadli jamg'armalari (Kitob jamg'armasi, Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi, Ta'lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasi), davlat tomonidan ta'limning taraqqiyotiga jalb qilinadigan qarz mablag'lari (davlat ta'lim tizimini rivojlantirishga mo'ljallangan xorijiy zayomlarning qaytarilishini kafolatlaydi) va grantlar xuddi davlat mablag'lari kabi ishlatiladi.

Ta'lim sohasi xodimlari faoliyatini baholash va rag'batlantirish mezonlari tubdan o'zgartirildi. Masalan, keyingi 10 yilda kasb-hunar kollejlari, litsey va oliy ta'lim muassasalarida ish haqining o'sish sur'atlari iqtisodiyotning real sohasidagi ish haqi miqdoridan tahminan 1,5 barobar ko'p o'sdi. O'zbekiston ta'lim sohasini rivojlantirish va isloh etishga yo'naltirilayotgan yillik xarajatlar yalpi ichki

mahsulotning 10-12 foizini tashkil etib, bu tizimning davlat byudjeti xarajatlaridagi ulushi 35 foizdan ortiqni tashkil etmoqda.

Hozirgi kunda byudjet xarajatlarining aksariyat qismi ta'lim tizimini ta'minlashga safarbar etilmoqda. Xususan, ta'lim sohasiga ajratilgan byudjet mablag'lari davlat byudjetidan amalga oshirilgan jami xarajatlarning: 2016-yilda – 33,7 foizini, 2017 yilda – 34,9 foizini, 2018-yil prognoz ko'rsatkichlari bo'yicha esa 31,4 foizini tashkil qilgan (1-jadval).

1-jadval

**O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining ta'lim sohasiga xarajatlari<sup>12</sup>**  
(foizda)

<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>2016-y.</b>	<b>2017-y.</b>	<b>2018-y. (prognoz)</b>
Davlat byudjetining ta'lim xarajatlari	33,7	34,9	31,4
Davlat byudjetidan ta'lim xarajatlarining YaIM dagi ulushi	7,2	6,6	6,6

Ta'lim muassasalari eng keng tarqalgan davlat muassasalari hisoblanadi. Ularni qurish, mavjudlarini saqlash, moddiy-texnikaviy jihatdan ta'minlash, kadrlar masalasini hal qilish kabilar tarixan davlat mablag'lari evaziga amalga oshirilib kelingan. Ta'lim tizimining joriy va kapital xarajatlarini moliyalashtirishda davlat byudjetining ahamiyati hali ham katta. Davlat byudjetining ijtimoiy-madaniy sohalarni saqlash xarajatlari tarkibida ham asosiy o'rinni ta'lim xarajatlari egallaydi. Ular ijtimoiy-madaniy sohalarga ajratilgan byudjet mablag'larining o'rtacha 68-69 foizini tashkil qiladi.

Bugungi kunga kelib ta'lim sektorining joriy va kapital ehtiyojlarini to'laqonli ta'minlashda, davlat mablag'lari, shubhasiz, muhim o'rin egallaydi. Lekin moliyaviy muammolarning keskinlashuvi va shu munosabat bilan byudjet mablag'larining chegaralanganligi sharoitida davlat ta'lim muassasalarining moliyaviy holatini yaxshilash, ularning byudjetdan tashqari mablag'lardan

---

<sup>12</sup> O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining hisobot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi. [www.mf.uz](http://www.mf.uz) - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti.

foydalanish ko'lamlarini kengaytirish, ta'lim masalalariga keng jamoatchilik e'tiborini jalb qilish masalalari o'z dolzarbligini yo'qotmaydi.

Bugungi kunda O'zbekistonda kasb-hunar kollejlari ta'lim tizimi o'zgarishi bu ayni damda faoliyat yuritayotgan kollejlarning "yoppasiga yopiladi", degani emas. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi faoliyatini takomillashtirish to'g'risidagi qarorida<sup>13</sup> kollejlarning vazirliklar, idoralar, xo'jalik birlashmalari, tijorat banklari va yirik korxonalariga birlashtirilishi belgilab qo'yilgan.

O'zbekistondagi kasb-hunar kollejlari kelajakdagi qiyofasi haqida gapirishdan avval, iqtisodiyoti u qadar rivojlanmagan mamlakatdan qisqa vaqt oralig'ida yuqori texnologiyalar mamlakatiga aylangan, ushbu sohada katta sakrashni amalga oshirgan Koreya, Finlyandiya va Singapur tajribasini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.. Mamlakatlar bunday yutuqqa o'z ta'lim tizimiga to'g'ri o'zgartirishlarni kiritgani, ta'lim tizimida to'g'ri siyosatni olib borgani uchun erisha oldi. Ular o'qituvchilikka iste'dodli kadrlarni jalb qilish maqsadida, ularning maoshi va obro'sini keskin oshirgan edi.

Kollejlarning vazirlik va idoralar, buyurtmachi ish beruvchi korxonalar va tashkilotlarga birlashtiriladi. Har bitta tayyorlov yo'nalishi bo'yicha rivojlanish konsepsiyasi ishlab chiqiladi, milliy malaka talablari belgilanadi va kasbiy standart ishlab chiqiladi. Kasbiy standart ma'nosi shuki, deylik, bitta ish o'rni ishchidan qanday malaka va ko'nikmalarni talab qiladi, ushbu holat o'rganilib, shu asosda modulli o'quv rejalari paydo bo'ladi. Ta'lim jarayoni esa doimiy ravishda takomillashtirilib boriladi. Bundan maqsad – kasb-hunar ta'limi tizimi iqtisodiyot rivojlanishining muhim komponentiga aylanadi, ya'ni kollejlarda yuqori malakali ishchilar, zamonaviy kasb egalari, iqtisodiyotning o'rta bo'g'ini mutaxassislari tayyorlanadi.

Yaqin istiqbolda kasbiy standartlar, milliy malaka talablari xalqaro kvalifikatsiya standartlariga mos ravishda ishlab chiqiladi. Bu degani, kollejlarda

---

<sup>13</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-3504-son Qarori. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.02.2018 y., 07/18/3504/0654-son)

jahon mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yiladi. Kasblarning, mutaxassisliklarning murakkabligidan, o'quvchilar egallashi kerak bo'lgan bilimi, malaka, ko'nikma va kompetentsiyalar hajmidan kelib chiqib tabaqalashtirilgan 6 oydan 2 yilgacha bo'lgan ta'lim dasturlari joriy qilinadi.

Ayni damda kollejlarda faqat 9-sinf bitiruvchilarini qabul qilgan bo'lsa, endilikda bunday standartlardan voz kechilmoqda. Misol uchun, fuqaro o'z kasbini o'zgartirishni niyat qildi deylik, u o'zi yashaydigan hududda yangi qurilgan to'qimachilik fabrikasiga ishga kirish uchun kasb-hunar o'rganmoqchi. Biroq, bunday niyatda bo'lganlarga keskin "yo'q" javobi berilgan. Sog'lig'i to'g'ri kelmaganligi sababli, boshqa kasbni egallamoqchi bo'lgan fuqarolar ham xuddi shunday muammoga duch kelishgan.

Endilikda esa kollejlarda nafaqat maktab bitiruvchilari, bunga qadar ham o'rta maxsus ma'lumot olgan, oliy ma'lumotga ega bo'lgan, ishsiz qolish xavfi ostida qolgan ixtiyoriy yoshdagi fuqarolar ham tahsil olishlari mumkin bo'ladi.

Kelgusida O'zbekiston fuqarolari mehnat bozorida talab yuqori darajada bo'lgan kasb-hunar sirlarini qisqa muddat ichida o'qib o'rganishlari yoki mehnat bozorida yaxshi ish o'rnini qo'lga kiritish uchun o'z malakalarini oshirishlari mumkin bo'ladi.

Hozirgacha kollejlarda faqat kunduzgi ta'lim shakliga ega edi. Endilikda kollejlarda kunduzgidan tashqari, sirtqi, masofaviy va uyg'unlashtirilgan ta'lim yo'nalishlari yo'lga qo'yiladi.

Shuningdek, hozirda o'qish muddati 3 yil majburiy bo'lgan bo'lsa, endilikda kasblarning murakkabligidan kelib chiqib 6 oydan 2 yilgacha muddatda ixtiyoriy etib belgilandi, ya'ni yangi kasbni o'rganishga ehtiyoj bo'ldimi, kelib o'qib ketaverish imkoniyati yaratildi.

Endilikda kollejlarda ta'lim innovatsion texnologik jarayonga o'tkaziladi. Ilgari an'anaviy ta'lim jarayonida darsga kirilganda, o'qituvchining aytgani aytgan bo'lib, kitobdan boshqa qo'llanma bo'lmagan. Bunday holatlar o'tmishda qoladi. Zamonaviy kollejlarda o'quv materiallari kasbga o'rganuvchida tasavvur

uyg'otishi uchun vizuallashtiriladi, videodarslar yo'lga qo'yiladi (o'quvchi xohlagan vaqtda o'tilgan darsni qaytadan ko'rishi mumkin bo'ladi), videoinstruktorlar ta'lim jarayoniga kiritiladi (darsda biron sabab tufayli qatnasha olmagan talabalar uchun bu katta qulaylik tug'dirishi turgan gap).

Shuningdek, virtual amaliy mashg'ulotlar, multimediya resurslari yaratiladi, virtual laboratoriyalar tashkil qilinadi. Endilikda kollejlarda qattiqqo'l "mening aytganim bo'ladi" deydigan pedagoglar o'rnini insonning yoshiga qarab, uning salohiyatini belgilay oladigan, ta'lim olish jarayonida unga hamrohlik qiladigan "o'qituvchi-andragog"lar egallaydi. Ularning mahorati va salohiyatini oshirish maqsadida yangitdan tashkil etilgan Innovatsion rivojlantirish institutida maxsus maqsadli o'quv kurslari, seminar-treninglar, masofaviy hamda onlayn kurslar tashkil etiladi. Endilikda kollejlarda o'quvchilar vatanparvarlik ruhida va professional kasb egalari qilib tarbiyalanadi.

Ta'lim dasturlari toifalariga bog'liq bo'ladi: 50 dan ortiq kasblarga tayyorlash ta'lim dasturlari 10-11-sinflarda ta'lim olish davomida o'rgatiladi va to'liq davlat byudjeti hisobidan moliyalashtiriladi.

Yuqori texnologik tayyorgarlik talab qiladigan 6 oydan 1 yilgacha bo'lgan kasbiy ta'lim dasturlari buyurtmachi ish beruvchi korxonalar, idora va tashkilotlar tomonidan moliyalashtiriladi.

Buyurtmachisi bo'lmagan shaxslar o'zlarining shaxsiy jamg'armalari hisobidan to'lovni amalga oshirishi mumkin.

1,5 - 2 yillik mutaxassislikni egallash bo'yicha o'rta maxsus o'rta bo'g'in ta'lim dasturlari oliy ta'limga muqobillik asosida bir qismi grant hisobidan, bir qismi kontrakt hisobidan amalga oshiriladi.

Kelgusida kollejlarda stipendiya, oziq-ovqat, kiyim-kechaklar bilan ta'minlanish masalalari kollejni saqlash xarajatlarini qoplaydigan vazirlik va idoralar, xo'jalik birlashmalari, tijorat banklari imkoniyatlari doirasida belgilanadi.

Iqtisodiy jihatdan barqaror vazirlik, idora, korporatsiyalar, yirik ish beruvchilar o'zlarining aksionerlari, ichki imkoniyatlari doirasida o'quvchilar

uchun qo'shimcha stipendiya va shu kabi qo'llab-quvvatlashlarni amalga oshirishlari mumkin bo'ladi.

Texnologik yangiliklarni ta'lim tizimiga kiritish - ta'lim tizimini hozirgi davrning eng qiziqarli jarayonlaridan biriga aylantiradi. Demakki, ta'lim sohasidagi islohotlarni o'z taraqqiyot strategiyasi, ichki siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab olgan O'zbekiston yaqin kelajakda ta'lim tizimi bilan ham dunyo e'tirofiga sazovor bo'ladi.

2-jadval

**Turli davlatlarda umumiy ta'limga davlat ajratmalari<sup>14</sup>**

<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>Buyuk Britaniya</b>	<b>AQSH</b>	<b>Fransiya</b>	<b>Yaponiya</b>
Ta'limga davlat xarajatlari, YaIMga nisbatan %da	5,5	5,3	5,7	3,5
Ta'limga xarajatlar, davlat xarajatlariga nisbatan %da	12,5	13,7	10,6	9,5
Xarajat moddalari bo'yicha muassasa xarajatlari:				
Xodimlarga ish haqi	73,1	71,8	74,6	79,7
Smeta xarajatlari bo'yicha:				
Joriy xarajatlar	91,5	88,8	90,2	90,3
Kapital xarajatlar	8,5	11,2	9,8	9,7

Jadvaldan ko'rinib turganidek, rivojlangan mamlakatlarda ta'lim tizimiga ajratiladigan xarajatlar mamlakatlar YaIMining o'racha 3,5-5,5 foizini tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkichning ko'p yoki kam ekanligini bilish uchun quyidagi ma'lumotga murojaat qilamiz: "Mamlakatda ta'lim tizimining barqaror rivojini ta'minlash uchun mamlakat YaIMining 7-8 foizini safarbar qilish maqsadga muvofiq"<sup>15</sup>.

<sup>14</sup> <http://www.auditfin.com> elektron manzili ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

<sup>15</sup> FutaoHuang. Higher education financing: Trends and challenges. International Journal of Educational Development. January 2018, Pages 106-115

Mamlakatlarga kadrlar tayyorlash sohasi bir nechta sabablarga ko'ra muhimdir. Birinchidan, bu mamlakat rivojlanishining yuqori darajalariga erishish yo'lidagi muhim qadam hisoblanadi. Ta'limning sifati va samaradorligi inson kapitalining yuqori salohiyatini belgilab beradi. Har bir mamlakatda kadrlar tayyorlashni moliyalashtirishning turlicha modellaridan foydalaniladi. Ayrim davlatlarda ta'limni moliyalashtirishga asosan xususiy mablag'lar yo'naltirilsa, ayrimlarida bu sektor asosan davlat mablag'lari hisobidan ta'minlanadi. Keyingi yillarda ta'lim sohasiga yo'naltiriladigan davlat va xususiy sektor mablag'lari o'rtasidagi nisbat birmuncha o'zgardi va xususiy manbalarning ustunligi kuzatilmoqda<sup>16</sup>.

### **1-bob bo'yicha xulosa**

Davlat tomonidan ta'lim xizmatlari tizimini bozor iqtisodiyoti talablari asosida rivojlantirish bo'yicha iqtisodchi olimlar va davlatlar tomonidan katta e'tibor berilmoqda. Ammo, aytish mumkinki, xozirgi bozor munosabatlari sharoitida ta'lim xizmatlari tizimi ta'lim xizmatlari va mehnat bozorlari talablariga moliyaviy samaradorlik jihatdan uning ta'lim xizmatlari tizimini sifati jihatdan va undan foydalanish ta'lim olishga intiluvchilarni talablarini qondiradigan darajada bo'lishi kerak. Buning uchun:

– milliy ta'lim tizimini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish iqtisodiy mintaqalarning kadrlarga bo'lgan talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda amalga oshirish zarur;

– ta'lim tizimini ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqlikda olib borishni tashkil etishni doimiy ravishda ta'lim tizimining rivojini ta'minlovchi muassasalar tomonidan amalga oshirilishi zarur<sup>17</sup>.

---

<sup>16</sup> Alper Goksu Gonca Gungor Goksu. A Comparative Analysis of Higher Education Financing in Different Countries. *Procedia Economics and Finance*. 2015, Pages 52-58. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2212567115009454>

<sup>17</sup> Rejapov X.X. Oliy ta'lim tizimida xorij tajribasi va ulardan foydalanish imkoniyatlari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2017-yil.

## **2-BOB. O'RTA MAXSUS TA'LIM MUASSASALARI XARAJATLARINI REJALASHTIRISH VA MOLIYALASHTIRISHNING AMALDAGI HOLATI**

### **2.1. O'rta maxsus ta'lim muassasalari byudjetini aniqlash amaliyoti**

Byudjet mablag'lari hisobidan ta'minlanadigan aksariyat byudjet tashkilotlari kabi, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari ham o'z faoliyatlari bilan bog'liq ehtiyojlarini qondirish uchun zarur mablag'larning yetishmasligi muammosiga duch keladilar. Ushbu muammolar byudjet mablag'lariga bo'lgan ehtiyojni an'anaviy tartibda (ya'ni ish natijalaridan qat'i nazar, smetalarni guruhlar soni, o'quv soatlari soni, kvadrat metrlarda hisoblanadigan muassasa maydoni, o'tgan yildagi haqiqiy xarajatlar kabi natural va qiymat me'yorlaridan foydalanib ishlab chiqish) aniqlash bilan bog'liq holda yuzaga keladi. Muassasa tomonidan hisoblangan byudjet mablag'lariga bo'lgan ehtiyoj mahalliy (hududiy) moliya yoki boshqaruv darajasida ko'rib chiqiladi va byudjet imkoniyatlaridan kelib chiqib tuzatishlar kiritiladi. Bunda ta'lim muassasasi uchun ajratilayotgan byudjet mablag'larining haqiqiy miqdori aksariyat hollarda muassasa tomonidan aniqlangan, hisoblangan ehtiyojga nisbatan ancha kam bo'ladi. Alohida olingan muassasaning tasdiqlangan byudjeti moddalar bo'yicha batafsil yoyib chiqilgan xarajatlar ro'yxatidan iborat bo'ladi. Muassasalar oyma-oy ushbu ro'yxatga muvofiq xarajatlarning har bir moddasi bo'yicha byudjet mablag'larini oladilar.

Amaliyotda muassasalar o'z ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan xarajat miqdorlarini oshirib ko'rsatishdan manfaatdor bo'ladilar, ammo qat'iy xarajat moddalari asosida byudjetdan moliyalashtirish jarayoni ta'lim muassasalari rahbarlarining mablag'larni taqsimlash bo'yicha qarorlar qabul qilish mustaqilligini cheklab qo'yadi. Moliyalashtirishning ushbu tizimini qo'llash oqibatida ta'lim muassasalarini boshqarishdagi mustaqillik ma'lum darajada cheklanib qoladi. Shu sababli muassasa rahbarlari ta'lim sifati va samaradorligini

osHIRISH maqsadida o'z resurslarini samarali boshqarishdagi imkoniyatlari birmuncha cheklanib qoladi.

Bu sohada islohotlarning zarurligi va muhimligini hisobga olgan holda respublikaning ayrim hududlarida byudjet mablag'larini rejalashtirish bo'yicha tajriba loyihalarini boshlash, ushbu loyihalar doirasida jon boshiga moliyalashtirining yangi tizimini sinab ko'rish to'g'risida qaror qabul qilindi. Loyiha dastlab umumta'lim muassasalarini qamrab oldi. Bu kabi loyihalar ta'lim muassasalari uchun ajratiladigan byudjet resurslarini boshqarish va muassasa byudjetini shakllantirishning muqobil mexanizmlarini joriy etish maqsadlarini ko'zlab o'tkazildi.

O'zbekistonda ta'lim sohasida o'quvchi jon boshiga moliyalashtirish usulini bosqichma-bosqich va barcha hududlarda joriy etish uchun zarur sharoitlar yaratildi (3-jadval). Barcha umumta'lim maktablari, maktabgacha ta'lim muassasalari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida bir nafar o'quvchiga (tarbiyalanuvchiga, talabaga) mo'ljallangan xarajatlarning bazaviy normativlarini joriy etish shartlarini qat'iy belgilovchi hukumat qarorlarining qabul qilinishi ushbu yo'nalishdagi muhim qadam hisoblanadi.

2010-2011-yillarda o'rta maxsus, kasb-hunar hamda oliy o'quv yurtlari o'z xarajatlarini bir nafar talabani (o'quvchini) o'qitish xarajatlarining bazaviy normativlaridan kelib chiqib normativ rejalashtirish tizimiga o'tdilar. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazining 2011-yil 22-martdagi № 25/№ 08-son Qo'shma qarorining qabul qilinishi va 2011-yil uchun bir nafar o'quvchini o'qitish xarajatlarining bazaviy normativlaridan kelib chiqib o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari xarajatlarini normativ rejalashtirish to'g'risidagi Nizomning tasdiqlanishi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari byudjeti mablag'lari miqdorini jon boshiga moliyalashtirish asosida aniqlash borasida navbatdagi qadam bo'ldi.

**Xarajatlarning bazaviy normativlaridan kelib chiqib ta'lim muassasalari xarajatlarini rejalashtirishga asoslangan jon boshiga moliyalashtirishni joriy etish bosqichlari<sup>18</sup>**

<b>№</b>	<b>Joriy etilgan yil</b>	<b>Asos</b>	<b>Mintaqa (viloyat/shahar)</b>	<b>Muassasa turi</b>
1	2008-yil	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Xalq ta'limi vazirliklarining "2008 yil uchun Buxoro, Farg'ona viloyatlari va Toshkent shahri umumta'lim muassasalarida bir nafar o'quvchini o'qitish xarajatlarining bazaviy normativlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 14.03.2008 y. №24/8-son Qo'shma Qarori	Buxoro, Farg'ona, Toshkent sh.	Umumta'lim maktablari
2	2009-yil	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Xalq ta'limi vazirliklarining "2009 yil uchun Buxoro, Farg'ona, Namangan, Sirdaryo, Xorazm viloyatlari va Toshkent shahri umumta'lim maktablarida bir nafar o'quvchini o'qitish xarajatlarining bazaviy normativlari tasdiqlash to'g'risida"gi 16.04.2009 y. №24/8-son Qarori	Buxoro, Farg'ona, Namangan, Sirdaryo, Xorazm, Tashkent sh.	Umumta'lim maktablari
3	2010-yil	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Xalq ta'limi vazirliklarining 28.04.2010 y. № 34/№ 16, № 35/№ 15-son Qarorlari; O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Xalq ta'limi vazirliklarining 14.04.2011 g. № 24/№ 8-son Qarori	Barcha mintaqalar	Umumta'lim maktablari, maktabgacha ta'lim muassasalari
4	2010-yil	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklarining 20.08.2010 y. № 67/№ 329-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 26.08.2012 y. № 2136-son bilan ro'yxatga olingan	Barcha mintaqalar	Oliy ta'lim muassasalari
5	2011-yil	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazining 22.03.2011 y. № 25/№ 08-son Qo'shma Qarori	Barcha mintaqalar	O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari

Bizga ma'lumki, 2010 yilgacha bo'lgan davrda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari turlari bo'lgan akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o'z smetalari va shtatlar jadvalini Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan byudjet

<sup>18</sup> Me'yoriy hujjatlarni o'rganish asosida talaba tomonidan tayyorlandi

tashkilotlarini moliyalashtirish me'yorlari asosida Byudjet tashkilotlari xarajatlarini moliyalashtirish tartibiga<sup>19</sup> muvofiq mustaqil tarzda ishlab chiqqanlar va tasdiqlaganlar.

2010-yildan boshlab akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun yangi yildan e'tiboran bir nafar o'quvchini o'qitish xarajatlarining bazaviy normativlaridan kelib chiqqan holda byudjet mablag'lari hisobidan xarajatlarni rejalashtirish va moliyalashtirish tartibi (jon boshiga moliyalashtirish) belgilandi.

Shu bilan bog'liq holda 2010-yil 1-yanvardan O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi hududiy boshqarmalarining huzuridagi markazlashgan buxgalteriyalarini bekor qilish hamda ularning bazasida<sup>20</sup>:

- Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar Moliya boshqarmalari tuzilmasida O'MKHT muassasalarini moliyalashtirish sho'balari;

- O'MKHT hududiy boshqarmalari tuzilmasida moliya-buxgalteriya xizmatlarini tashkil etish bo'yicha ishlar boshlab yuborildi.

Shu o'rinda shuni ta'kidlash lozimki, ayrim O'MKHT muassasalari uchun byudjetdan ajratiladigan mablag'lar miqdorini formula asosida hisoblash tartibi tatbiq etilmaydi. Ularga quyidagi akademik litsey va kasb-hunar kollejlari kiradi:

- O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi kasb-hunar kollejlari;
- Toshkent shahridagi Xalqaro Vestminster universiteti qoshidagi akademik litsey;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi harbiy-akademik litseyi;
- olimpiya zaxiralari kollejlari;

---

<sup>19</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 3.09.1999 y. 414-son qaroriga ilova.

<sup>20</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.12.2009. PQ-1245-son qarorining 19-bandi; O'zbekiston Respublikasi OO'MTV O'MKHTMning "2010-yil uchun mahalliy byudjetlardan moliyalashtiriladigan kasb-hunar kollejlari bir nafar o'quvchini o'qitish xarajatlarining bazaviy normativlarini belgilash va tuzatish koeffitsientlarini qo'llash tartibi to'g'risida Nizomni tasdiqlash haqida"gi 28.04.2010 y. 33/29-son qarori.

– madaniyat, san’at va sport ta’limi yo’nalishlari bo’yicha ixtisoslashgan akademik litsey va kasb-hunar kollejlari.

Yuqorida qayd etib o’tilgan O’MKHT muassasalari uchun ajratiladigan byudjet mablag’larining umumiy miqdori mablag’larga bo’lgan haqiqiy ehtiyoj va o’tgan yillar xarajatlarini tahlil etish asosida byudjet xarajatlarining iqtisodiy tasnifiga ko’ra xarajatlarning quyidagi guruhlari bo’yicha hisoblanadi:

I-guruh – “Ish haqi va unga tenglashtirilgan to’lovlar”.

II-guruh – “Ish beruvchilarning ajratmalari”.

IV-guruh – “Boshqa xarajatlar”.

Quyida biz o’rta maxsus kasb-hunar ta’lim muassasasining umumiy byudjetini hisoblashni 2017-yil uchun tasdiqlangan me’yorlar asosida ko’rib chiqamiz.

Bir nafar o’quvchini o’qitish xarajatlarining bazaviy normativlaridan kelib chiqib byudjet mablag’lari hisobidan xarajatlarni rejalashtirish va moliyalashtirishning yangi tartibiga o’tgan o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari uchun xarajatlarni moliyalashtirish (muassasa byudjeti) miqdori quyidagi formula yordamida hisoblab chiqariladi<sup>21</sup>:

$$\mathbf{BU = BNZ_1 \times N \times K_{to} \times K_{ng} + BNZ_2 + (BND_1 \times N_s + BND_2 \times N_{sv}) + BNM \times N_m \times K_{mp} + (BNMX + BNI + BNO),} \quad (2.1.)$$

bu yerda:

**BU** – O’MKHT muassasasi byudjeti;

**BNZ<sub>1</sub>** – bir nafar o’quvchini o’qitish xarajatlarining bazaviy normativi;

**N** – o’quvchilarning o’rtacha yillik soni;

**K<sub>to</sub>** – isitish turi bo’yicha bir nafar o’quvchini o’qitish xarajatlarining bazaviy normativlariga tuzatish koeffitsienti;

<sup>21</sup> Bir nafar o’quvchiga xarajatlarning bazaviy me’yorlaridan kelib chiqqan holda davlat o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining 2017-yilgi byudjetini rejalashtirish va xarajatlarini moliyalashtirish tartibi to’g’risida Nizom (O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, OO’MTV O’MKHTMning 9.03.2017 y. 26/14 QQ-son qo’shma qarori).

$K_{ng}$  – o'quv guruhlarining tuliqlilik koeffitsienti, o'quv guruhlarida haqiqiy o'rtacha yillik to'liqlilik 30 o'quvchidan oshadigan O'MKHT muassasalarida qo'llaniladi;

$BNZ_2$  – bir nafar O'MKHT muassasasi uchun ma'muriy, o'quv-yordamchi va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar mehnatiga haq to'lash bo'yicha xarajatlarning bazaviy normativi (muassasa uchun joriy yilning 1 yanvar holatiga o'quvchilar sonidan kelib chiqib aniqlanadi);

$BND_1$  – to'liq davlat ta'minotida bo'lgan yetim va ota-ona qarovsiz qolgan O'MKHT muassasasi bir o'quvchisining moddiy ta'minoti bo'yicha xarajatlarning bazaviy normativi;

$BND_2$  – to'liq davlat ta'minotida bo'lgan yetim va ota-ona qarovsiz qolgan O'MKHT muassasasi bir nafar bitiruvchi o'quvchisini bitiruv va ishga joylashish uchun beriladigan bir martalik nafaqa bilan ta'minlash bo'yicha xarajatlarning bazaviy normativi;

$N_s$  – to'liq davlat ta'minotida bo'lgan yetim va ota-ona qarovsiz qolgan O'MKHT muassasasi o'quvchilarining o'rtacha yillik soni;

$N_{sv}$  – joriy yilda to'liq davlat ta'minotida bo'lgan yetim va ota-ona qarovsiz qolgan O'MKHT muassasasi bitiruvchi o'quvchilari soni;

$BNM$  – kasb-hunar kollejining bir nafar o'quvchisi uchun ishlab chiqarish ta'limi ustalari mehnatiga haq to'lash xarajatlari bazaviy normativi;

$N_m$  – joriy yilning 1 yanvar holatiga ishlab chiqarish ta'limi ustalari dars berayotgan o'quv-ishlab chiqarish guruhlarida o'qiyotgan o'quvchilar soni;

$K_{mp}$  – murakkab uskunalarni ishlatiladigan va havfli yoki murakkab ishlarni bajarish bilan bog'liq kasblar o'rgatiladigan ishlab chiqarish ta'limi ustalari mehnatiga haq to'lash bo'yicha kasb-hunar kolleji bir nafar o'quvchisini o'qitish xarajatlarning bazaviy normativlariga (BNM) tuzatish koeffitsienti;

**BNMX** – bitta kasb-hunar kolleji uchun o'quv-ishlab chiqarish ustaxonasi mexanigi mehnatiga haq to'lash bo'yicha xarajatlarning bazaviy normativi;

**BNI** – bitta O'MKHT muassasasi uchun guruhlar bo'yicha axborot-resurs markazlari xodimlari mehnatiga haq to'lash xarajatlarning bazaviy normativi;

**BNO** – bitta O'MKHT muassasasi uchun yotoqxonalarida haqiqatda yashaydigan har 100 nafar o'quvchisi uchun xarajatlarning bazaviy normativi (O'MKHT muassasasi yotoqxonalarida haqiqatda yashaydigan har 100 nafar o'quvchisi uchun).

O'MKHT muassasalari byudjetini hisoblashda qo'llaniladigan xarajatlarning bazaviy normativlarini ko'rib chiqishga o'tamiz.

O'MKHT muassasasi bir nafar o'quvchisini o'qitish xarajatlarning bazaviy normativlariga pedagog xodimlar, ishlab chiqarish ta'limi ustalari mehnatiga haq to'lash bo'yicha xarajatlarning bazaviy normativi (O'MKHT muassasasini saqlash (kommunal xizmatlar, joriy ta'mirlash, materiallar sotib olish va b.) bilan bog'liq xarajatlarning bazaviy normativi, O'MKHT muassasasining to'liq davlat ta'minotida bo'lgan, etim va ota-ona qarovsiz qolgan bir nafar o'quvchisi ta'minoti bo'yicha xarajatlarning bazaviy normativlariga esa ularga beriladigan pullik nafaqalar, ularni ovqatlantirish, kiyim-bosh, poyabzal va shaxsiy gigiena buyumlari, muassasani bitirish va ishga joylashish uchun beriladigan bir martalik nafaqa bilan ta'minlash bilan bog'liq xarajatlarning bazaviy normativi kiradi).

Xarajatlarning bazaviy normativlariga Direktor jamg'armasi mablag'lari va yagona ijtimoiy to'lov summalari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan miqdorlarda kiritiladi.

Bir nafar o'quvchini o'qitish xarajatlarning bazaviy normativlariga quyidagi xarajatlarning bazaviy normativi kiritilmaydi (bu xarajatlarning bazaviy normativi ularga bo'lgan haqiqiy ehtiyojdan kelib chiqqan holda, tegishli O'MKHT boshqaruv organlari, tarkibida o'rta maxsus muassasaga ega bo'lgan vazirliklar(idoralar)ning tegishli moliya organlari bilan kelishilgan holda tasdiqlanadigan manzilli ro'yxatlar asosida ajratiladi):

– ko'mir va boshqa turdagi energiya tashuvchilarni (tabiiy gaz va issiqlik energiyasidan tashqari) sotib olish va etkazib berish;

– barcha turdagi kommunal xizmatlar iste'molini o'lchaydigan hisoblagichlar sotib olish va o'rnatish;

– kasb-hunar kollejlari o'quv ustaxonalarida o'quvchilarning amaliy mashg'ulotlarini o'tkazish va tashkil etish uchun zarur xomashyo va materiallar sotib olish;

– asosiy aktivlarni sotib olish;

– kapital ta'mirlash.

Quyida biz O'MKHT muassasalari byudjetini hisoblash uchun zarur bo'lgan formulaning tarkibiy qismlarini ko'rib chiqamiz.

1. Bir nafar o'quvchini o'qitish xarajatlarining bazaviy normativi (BNZ<sub>1</sub>) akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun O'zbekistonning barcha mintaqalari (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri) bo'yicha yagona o'rnatilgan (4-jadval).

4-jadval

**2017-yil uchun o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida bir nafar o'quvchini o'qitish xarajatlarining bazaviy normativi (BNZ<sub>1</sub>)<sup>22</sup>**

№	Hududlar	Xarajatlarning bazaviy normativi (BNZ <sub>1</sub> )	
		Kasb-hunar kolleji	Akademik litsey
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	1460315	1649129
2	Andijon viloyati		
3	Buxoro viloyati		
4	Jizzax viloyati		
5	Qashqadaryo viloyati		
6	Navoiy viloyati		
7	Namangan viloyati		
8	Samarqand viloyati		
9	Surxondaryo viloyati		
10	Sirdaryo viloyati		
11	Toshkent viloyati		
12	Farg'ona viloyati		
13	Xorazm viloyati		
14	Toshkent shahri		

<sup>22</sup>Bir nafar o'quvchiga xarajatlarning bazaviy me'yorlaridan kelib chiqqan holda davlat o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining 2017-yilgi byudjetini rejalashtirish va xarajatlarini moliyalashtirish tartibi to'g'risida Nizom, 1-ilova (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, OO'MTV O'MKHTMning 9.03.2017 y. 26/14 QQ-son qo'shma qarori).

2. O'MKHT muassasalari o'quvchilarining o'rtacha yillik soni (N) moliya yili davomida o'quvchilarning kurslar bo'yicha (qabul, bitiruv, o'quvchilar safidan chiqarish, kursdan-kursga ko'chirish va h.k.) rejaviy harakatini hisobga olgan holda aniqlanadi.

O'MKHT muassasalari o'quvchilarining o'rtacha yillik soni quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$N = U_n + U_p / 3 - U_v / 2 - U_o \times 0,6 \quad (2.2.)$$

bu yerda:

N - o'quvchilarning o'rtacha yillik soni;

$U_n$  - o'quvchilarning kalendar yili boshidagi soni (rejalashtirilayotgan yilning 1 yanvar holatiga);

$U_p$  - kutilayotgan qabul soni;

$U_v$  - kutilayotgan bitiruvchilar soni;

$U_o$  – kutilayotgan o'quvchilar safidan chiqarishlar soni.

3. 2017-yil uchun isitish turi bo'yicha bir nafar o'quvchini o'qitish xarajatlarining bazaviy normativlariga tuzatish koeffitsienti ( $K_{to}$ ) O'zbekistonning barcha mintaqalari bo'yicha akademik litseylar uchun yagona, kasb-hunar kollejlari uchun esa hududlar bo'yicha tabaqalashtirilgan holda tasdiqlangan (5-jadval).

5-jadval

**2017-yil uchun o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida bir nafar o'quvchini o'qitish xarajatlarining bazaviy normativlariga tuzatish koeffitsientlari<sup>23</sup>**

t/r	Hududlar	O'MKHT muassasasi isitish tizimi turiga ko'ra ( $K_{to}$ )			
		Gazda isitiladigan		Markaziy isitish tizimiga ega bo'lgan	
		KHK	AL	KHK	AL
1	2	3	4	5	6

<sup>23</sup>Bir nafar o'quvchiga xarajatlarning bazaviy me'yorlaridan kelib chiqqan holda davlat o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining 2017-yilgi byudjetini rejalashtirish va xarajatlarini moliyalashtirish tartibi to'g'risida Nizom, 3-ilova (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, OO'MTV O'MKHTMning 9.03.2017 y. 26/14 QQ-son qo'shma qarori).

1	2	3	4	5	6
1	Qorakalpog'iston Respublikasi	1,012	1,009	1,082	1,031
2	Andijon viloyati	1,004		1,000	
3	Buxoro viloyati	1,007		1,018	
4	Jizzax viloyati	1,009		1,022	
5	Qashqadaryo viloyati	1,003		1,001	
6	Navoiy viloyati	1,008		1,044	
7	Namangan viloyati	1,005		1,019	
8	Samarqand viloyati	1,003		1,014	
9	Surxondaryo viloyati	1,002		1,000	
10	Sirdaryo viloyati	1,011		1,000	
11	Toshkent viloyati	1,010		1,016	
12	Farg'ona viloyati	1,005		1,013	
13	Xorazm viloyati	1,007		1,019	
14	Toshkent shahri	1,013		1,026	

3. O'quv guruhlarining to'liqlilik koeffitsienti ( $K_{ng}$ ) o'quv guruhlarida haqiqatdagi o'rtacha yillik to'liqlilik 30 o'quvchidan yuqori bo'lgan O'MKHT muassasalarida qo'llaniladi va quyidagi formula asosida hisoblanadi<sup>24</sup>:

$$K_{ng} = 30 / FN \quad (2.3.)$$

bu yerda:  $FN$  - o'quv guruhlarining haqiqatdagi o'rtacha yillik to'liqliligi.

5. Bitta O'MKHT muassasasi uchun ma'muriy, o'quv-yordamchi va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar mehnatiga haq to'lash bo'yicha xarajatlarning bazaviy normativi ( $BN_{3_2}$ ) joriy yilning 1 yanvar holati uchun o'quvchilar sonidan kelib chiqib belgilanadi (6-jadval).

6-jadval

**2017 yil uchun bitta o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasi uchun xarajatlarning bazaviy normativlari<sup>25</sup>**

O'quvchilar soniga bog'liq holda ma'muriy, o'quv-yordamchi va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar mehnatiga haq to'lash bo'yicha xarajatlarning bazaviy normativi ( $BN_{3_2}$ )		
O'quvchilar soni (normativlar)	Kasb-hunar kolleji	Akademik litsey
	miqdori (so'm)	miqdori (so'm)
1	2	3

<sup>24</sup> Bir nafar o'quvchiga xarajatlarning bazaviy me'yorlaridan kelib chiqqan holda davlat o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining 2017-yilgi byudjetini rejalashtirish va xarajatlarini moliyalashtirish tartibi to'g'risida Nizom, 2-ilova (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, OO'MTV O'MKHTMning 9.03.2017 y. 26/14 QQ-son qo'shma qarori).

<sup>25</sup> O'sha joyda.

1	2	3
150 nafardan 300 nafargacha	382813	354050
301 nafardan 450 nafargacha	415548	386519
451 nafardan 600 nafargacha	488251	449098
601 nafardan 750 nafargacha	564780	519627
751 nafardan 900 nafargacha	611623	554832
901 nafardan 1050 nafargacha	690674	627843
1051 nafardan ortiq	759826	683544

6. 2017-yil uchun to'liq davlat ta'minotida bo'lgan yetim va ota-ona qarovisiz qolgan O'MKHT muassasasi bir o'quvchisining moddiy ta'minoti bo'yicha xarajatlarning bazaviy normativi (BND<sub>1</sub> hamda to'liq davlat ta'minotida bo'lgan yetim va ota-ona qarovisiz qolgan O'MKHT muassasasi bir nafar bitiruvchi o'quvchisini bitiruv va ishga joylashish uchun beriladigan bir martalik nafaqa bilan ta'minlash bo'yicha xarajatlarning bazaviy normativi (BND<sub>2</sub>) O'zbekistonning barcha mintaqalarida akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun bir xil o'rnatilgan (7-jadval).

7-jadval

**2017-yil uchun bitta o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasi uchun to'liq davlat ta'minotida bo'lgan yetim va ota-ona qarovisiz qolgan o'quvchining moddiy ta'minoti bo'yicha xarajatlarning bazaviy normativlari<sup>26</sup>**

t/r	Ko'rsatkichlar	Barcha hududlar uchun
		kollejlari va litseylar uchun
1	To'liq davlat ta'minotida bo'lgan yetim va ota-ona qarovisiz qolgan O'MKHT muassasasi bir nafar o'quvchisining moddiy ta'minoti bo'yicha xarajatlarning bazaviy normativi (bitiruv va ishga joylashish uchun bir martalik nafaqasiz) (BND <sub>1</sub> )	10 723 900
2	To'liq davlat ta'minotida bo'lgan yetim va ota-ona qarovisiz qolgan O'MKHT muassasasi bir nafar bitiruvchi o'quvchisini bitiruv va ishga joylashish uchun beriladigan bir martalik nafaqa bilan ta'minlash bo'yicha xarajatlarning bazaviy normativi (BND <sub>2</sub> )	15 726 375

<sup>26</sup> Bir nafar o'quvchiga xarajatlarning bazaviy me'yorlaridan kelib chiqqan holda davlat o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining 2017-yilgi byudjetini rejalashtirish va xarajatlarini moliyalashtirish tartibi to'g'risida Nizom, 1-ilova (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, OO'MTV O'MKHTMning 9.03.2017 y. 26/14 QQ-son qo'shma qarori).

7. To'liq davlat ta'minotida bo'lgan yetim va ota-ona qarovsiz qolgan O'MKHT muassasasi o'quvchilarining o'rtacha yillik soni ( $N_s$ ) O'MKHT muassasalari o'quvchilarining o'rtacha yillik sonini aniqlashda qo'llaniladigan formula orqali moliya yili mobaynida o'quvchilarning kurslar bo'yicha (qabul, bitiruv, o'quvchilar safidan chiqarish, kursdan-kursga ko'chirish va h.z.) rejaviy harakatini hisobga olgan holda hisoblanadi<sup>27</sup>:

$$N_s = U_{sn} + U_{sp} / 3 - U_{sv} / 2 - U_{so} \times 0,6 \quad (2.4.)$$

bu yerda:

$N_s$  – O'MKHT muassasasida ta'lim olayotgan, to'liq davlat ta'minotida bo'lgan yetim va ota-ona qarovsiz qolgan o'quvchilarning o'rtacha yillik soni;

$U_{sn}$  – O'MKHT muassasasida ta'lim olayotgan, to'liq davlat ta'minotida bo'lgan yetim va ota-ona qarovsiz qolgan o'quvchilarning kalendar yili boshidagi soni (rejalashtirilayotgan yilning 1 yanvar holatiga);

$U_{sp}$  – to'liq davlat ta'minotida bo'lgan yetim va ota-ona qarovsiz qolgan bolalarning kutilayotgan qabuli soni;

$U_{sv}$  – to'liq davlat ta'minotida bo'lgan yetim va ota-ona qarovsiz qolgan bitiruvchi o'quvchilarning kutilayotgan soni;

$U_{so}$  – to'liq davlat ta'minotida bo'lgan yetim va ota-ona qarovsiz qolgan o'quvchilarning kutilayotgan o'quvchilar safidan chiqarishlar soni.

8. Ishlab chiqarish ta'limi ustalari mehnatiga haq to'lash xarajatlarning bazaviy normativi (BNM) va o'quv-ishlab chiqarish ustaxonasi mexanigi mehnatiga haq to'lash bo'yicha xarajatlarning bazaviy normativi (BNMX) O'MKHT muassasasining amaldagi namunaviy shtatlarida nazarda tutiladigan lavozimlar mavjud kasb-hunar kollejlari qo'llaniladi. Bu hollarda murakkab jihozlar va havfli yoki murakkab ishlarni bajarish bilan bog'liq kasblar o'rgatiladigan kasb-hunar kollejlari ishlab chiqarish ta'limi ustalari mehnatiga

---

<sup>27</sup> Bir nafar o'quvchiga xarajatlarning bazaviy me'yorlaridan kelib chiqqan holda davlat o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining 2017-yilgi byudjetini rejalashtirish va xarajatlarini moliyalashtirish tartibi to'g'risida Nizom, 1-ilova (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, OO'MTV O'MKHTMning 9.03.2017 y. 26/14 QQ-son qo'shma qarori).

haq to'lash bo'yicha xarajatlarning bazaviy normativlariga tuzatish koeffitsientlari ( $K_{mp}$ ) qo'llaniladi.

2017-yil uchun O'zbekistonning barcha mintaqalari uchun umumiy bo'lgan kasb-hunar kollejining bir nafar o'quvchisi uchun ishlab chiqarish ta'limi ustalari mehnatiga haq to'lash xarajatlarining bazaviy normativi (BNM) barcha hududlar uchun 599 803 so'm miqdorida<sup>28</sup> belgilangan.

2017-yil uchun O'zbekistonning barcha mintaqalari uchun umumiy bo'lgan murakkab jihozlar va xavfli yoki murakkab ishlarni bajarish bilan bog'liq kasblar o'rgatiladigan ishlab chiqarish ta'limi ustalari mehnatiga haq to'lash bo'yicha kasb-hunar kolleji bir nafar o'quvchisini o'qitish xarajatlarining bazaviy normativlariga (BNM) tuzatish koeffitsienti ( $K_{mp}$ ) 1,50 qilib belgilangan<sup>29</sup>.

Shuningdek, bir nafar kasb-hunar kolleji uchun o'quv-ishlab chiqarish ustaxonasi mexanigi mehnatiga haq to'lash bo'yicha xarajatlarning bazaviy normativi (BNMX) ham belgilanadi va muassasa byudjetini aniqlashda qo'llaniladi. 2017-yil uchun bu normativ kasb-hunar kolleji uchun 8 362 so'm hajmida belgilangan<sup>30</sup>.

9. Axborot-resurs markazlari (ARM) xodimlari mehnatiga haq to'lash xarajatlarining bazaviy normativi (BNI) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 20-iyundagi "Respublika aholisini axborot-kutubxona bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risida"gi PQ-381-son qaroriga muvofiq axborot-resurs markazlari tashkil etilgan O'MKHT muassasalarida qo'llaniladi. Bunda axborot-resurs markazlari xodimlarini guruhlar bo'yicha taqsimlash O'MKHT muassasalari qoshidagi ARMLari uchun tasdiqlangan namunaviy shtatlarga muvofiq amalga oshiriladi.

2017-yil uchun bitta o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasasi uchun guruhlar bo'yicha ARMLari xodimlari mehnatiga haq to'lash xarajatlarining

---

<sup>28</sup> Bir nafar o'quvchiga xarajatlarning bazaviy me'yorlaridan kelib chiqqan holda davlat o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining 2017-yilgi byudjetini rejalashtirish va xarajatlarini moliyalashtirish tartibi to'g'risida Nizom, 1-ilova (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, OO'MTV O'MKHTMning 9.03.2017 y. 26/14 QQ-son qo'shma qarori).

<sup>29</sup> O'sha joyda.

<sup>30</sup> O'sha joyda.

bazaviy normativlari (BNI) filiallari mavjud bo'lgan va filialiga ega bo'lmagan muassasalar guruhlari bo'yicha tabaqalashtirilgan (8-jadval).

8-jadval

**2017-yil uchun bitta O'MKHT muassasasi uchun xarajatlarning bazaviy normativlari<sup>3132</sup>**

<b>№</b>	<b>Normativlar</b>	<b>miqdori (ming s.) kollejlari va litseylar uchun</b>	
1.	Filiallari mavjud bo'lgan ARM xodimlari mehnatiga haq to'lash xarajatlarning guruhlar bo'yicha bazaviy normativi (BNI)	1-guruh	176 674
		2-guruh	142 271
		3-guruh	110 476
2.	Filiallariga ega bo'lmagan ARM xodimlari mehnatiga haq to'lash xarajatlarning guruhlar bo'yicha bazaviy normativi (BNI)	1-guruh	108 985
		2-guruh	74 582
		3-guruh	42 787

10. Yotoqxonada xodimlari mehnatiga haq to'lash bo'yicha xarajatlarning bazaviy normativi (BNO) O'MKHT muassasasida yotoqxonada mavjudligi va unda haqiqatda 100 nafargacha o'quvchi yashayotgan hollardagina qo'llaniladi. Bunda yotoqxonada haqiqatda yashayotgan har keyingi 100 nafar o'quvchi uchun qo'shimcha ravishda yotoqxonada xodimlari mehnatiga haq to'lash bo'yicha xarajatlarning bazaviy normativlari qo'llaniladi.

2017-yil uchun bitta O'MKHT muassasasi uchun yotoqxonada xodimlari mehnatiga haq to'lash bo'yicha xarajatlarning bazaviy normativi (O'MKHT muassasasi yotoqxonalarida haqiqatda yashayotgan har 100 nafar o'quvchi uchun) akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari bo'yicha bir xil bo'lib (BNO), 63 825 so'm miqdorida belgilangan<sup>33</sup>.

O'MKHT muassasasi byudjetini hisoblashda quyidagilarni bilish va hisobga olish zarur:

<sup>31</sup> Bir nafar o'quvchiga xarajatlarning bazaviy me'yorlaridan kelib chiqqan holda davlat o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining 2017-yilgi byudjetini rejalashtirish va xarajatlarini moliyalashtirish tartibi to'g'risida Nizom, 2-ilova (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, OO'MTV O'MKHTMning 9.03.2017 y. 26/14 QQ-son qo'shma qarori).

<sup>32</sup> O'sha joyda.

<sup>33</sup> O'sha joyda.

1) qonunchilik bo'yicha alohida iqlim sharoitlari uchun hududiy koeffitsientlar belgilangan joylardagi O'MKHT muassasalari xarajatlar smetalarida ish haqiga qo'shimchalar, shuningdek, uzluksiz ishlagani uchun oylik qo'shimcha to'lovlar xarajatlarning bazaviy normativlari va ularga tuzatish koeffitsientlarini qo'llash asosida hisoblangan mablag'lar miqdoriga qo'shimcha ravishda o'rnatilgan tartibda to'lanadi.

2) O'MKHT muassasasining ayrim byudjet xarajatlari bo'yicha debitor qarzdorligi mavjud bo'lganda, xarajatlarning bazaviy normativlari va ularga tuzatish koeffitsientlarini qo'llash asosida hisoblangan byudjet xarajatlarning hajmi mazkur qarzdorlik summasiga kamaytiriladi.

Muassasasining joriy yilning boshiga yuzaga kelgan kreditor qarzdorligi muassasaning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan, mablag'lar yetishmagan taqdirda esa xarajatlarning bazaviy normativlari va ularga tuzatish koeffitsientlarini qo'llash asosida aniqlangan byudjet mablag'lari doirasida qoplanadi.

3) O'MKHT muassasalari gaz, ko'mir va markazlashgan issiqlik tizimidan tashqari, boshqa yoqilg'i turlari yordamida isitilgan hollarda yoqilg'i (masalan, o'tin, mazut, pech yoqilg'isi) sotib olish xarajatlari bazaviy normativlar asosida hisoblangan muassasa byudjetiga qo'shimcha ravishda, respublika va mahalliy byudjetlarning oliy va o'rta maxsus ta'lim va kadrlar malakasini oshirish uchun ajratiladigan xarajatlari doirasida rejalashtirishga ruxsat etiladi.

4) xarajatlarning bazaviy normativlari va ularga tuzatish koeffitsientlarini qo'llash asosida hisoblangan O'MKHT muassasalari bo'yicha byudjet xarajatlarning miqdorlari joriy yil uchun respublika byudjetining o'rta maxsus, oliy ta'lim va kadrlar malakasini oshirish uchun ajratiladigan tasdiqlangan xarajatlari doirasida aniqlanadi.

5) Moliya organlari tomonidan xarajatlar smetasini tuzish va xarajatlar miqdorini aniqlashda ayrim O'MKHT muassasalari xarajatlarning bazaviy normativlari va ularga tuzatish koeffitsientlarini qo'llash asosida hisoblangan byudjetiga O'MKHT muassasalarining amaldagi xarajatlari miqdoridan sezilarli farq qilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida respublika byudjetining o'rta maxsus,

oliy ta'lim va kadrlar malakasini oshirish uchun ajratiladigan tasdiqlangan xarajatlar doirasida ajratiladigan mablag'larning 8 foizi miqdorigacha tuzatish kiritishga ruxsat beriladi. Bunda smetaga ularning byudjetiga tuzatish kiritish zarurligini asoslovchi tegishli hisob-kitoblar ilova kilinadi.

6) xarajatlar smetasi, shtatlar jadvali va pedagog xodimlar tarifikatsiya ro'yxatini tuzish O'MKHT muassasasi rahbari va bosh buxgalteri (buxgalteri) tomonidan o'rnatilgan tartibga muvofiq hamda xarajatlarning bazaviy normativlari va tuzatish koeffitsientlarini qo'llash asosida hisoblangan mablag'lar doirasida amalga oshiriladi. Bunda mablag'larning quyidagi qat'iy tartibda taqsimlanishi belgilab qo'yiladi:

- ish haqi va yagona ijtimoiy to'lov;
- stipendiyalar;
- to'liq davlat ta'minotida bo'lgan yetim va ota-ona qarovisiz qolgan o'quvchilarni moddiy ta'minlash;
- kommunal xizmatlar uchun xarajatlar;
- qolgan joriy xarajatlar va boshqa xarajatlar.

O'MKHT muassasalari uchun belgilanadigan xarajatlarning bazaviy normativlari har yili qayta ko'rib chiqiladi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi qarorlari, navbatdagi yil uchun bir nafar o'quvchini o'qitish xarajatlarining bazaviy normativlaridan kelib chiqib o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari xarajatlarini normativ rejalashtirish tartibi to'g'risida Nizomga muvofiq tasdiqlanadi. 2017-yil uchun mazkur normativlar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazining 2017-yil 9-mart . 26/14 QQ-son qo'shma qarori bilan tasdiqlangan.

O'MKHT muassasasi byudjetining (jon boshiga moliyalashtirish usuli bilan hisoblangan) umumiy summasi xarajatlarning iqtisodiy tasnifiga ko'ra xarajat guruhlarini belgilangan tartibda hisoblash asosida xarajat guruhlari bo'yicha taqsimlanadi.

## **2.2. O'rta maxsus ta'lim muassasalarida smeta xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish tartibi**

O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 4-moddasida byudjet tashkilotlariga quyidagicha ta'rif berilgan: "Byudjet tashkiloti – davlat funksiyalarini amalga oshirish uchun belgilangan tartibda davlat hokimiyati organlarining qaroriga ko'ra tashkil etilgan, davlat byudjeti mablag'lari hisobidan saqlab turiladigan notijorat tashkilot"<sup>34</sup>. Bu tashkilotlar asosan yuridik shaxs maqomiga ega bo'lib, ularning faoliyati bu maqomning barcha talablariga (moddiy-texnika bazasi va faoliyat sohasi bo'yicha xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanish uchun yetarli sharoitning mavjudligi, buxgalter kadrlarning mavjud bo'lishi, shaxsiy hisobraqamining mavjud bo'lishi va sh.k.) javob berishi kerak.

Byudjet tashkilotlari bo'ysunuviga ko'ra, respublika byudjeti va mahalliy (viloyat, tuman, shahar) byudjetlardan mablag' bilan ta'minlanadilar, ularning joriy faoliyati byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlashning o'rnatilgan tartibiga asosan moliyalashtiriladi, bunda yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan tashkilotlar mustaqil ravishda o'z moliyaviy rejalarini xarajatlar smetasi shaklida qonunchilik bilan belgilangan tartibda ishlab chiqadilar.

Izlanish obyekti sifatida tanlangan O'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi, Toshkent shahar o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi boshqarmasiga qarashli bo'lgan Toshkent moliya va iqtisodiyot kolleji ham byudjet tashkiloti sifatida mustaqil ravishda o'zining byudjetdan olinadigan mablag'lari bo'yicha xarajatalr smetasini ishlab chiqadi va belgilangan tartibda tasdiqlab, ro'yxatdan o'tkazadi.

Xarajatlar smetasi – byudjet tashkilotining unga ajratilgan byudjet mablag'larining hajmi, maqsadli yo'nalishi va yil choraklari (har bir chorakning oylari) bo'yicha taqsimlanishini belgilab beruvchi asosiy moliyaviy hujjati hisoblanadi.

---

<sup>34</sup> O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi. 4-modda. O'zbekiston Respublikasi qonuni. O'RQ-360-son, 26.12.2013. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015-y. 52-son, 645-modda.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2014-yil 15-dekabrda 2634-son bilan ro'yxatga olingan "Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom"<sup>35</sup>ga muvofiq, O'MKHT muassasasi smetasi ham, boshqa byudjet tashkilotlari qatori, quyidagi xarajat guruhlari bo'yicha rejalashtiriladi:

I guruh – Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar (stipendiyalar va boshqalar);

II guruh – Ijtimoiy ehtiyojlarga ajratmalar (Ish beruvchilarning ajratmalari);

IV guruh – Boshqa xarajatlar.

I guruh – Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarga quyidagi xarajat turlari kiradi:

– "Ish haqi";

– "Ta'lim muassasalarining o'rnak ko'rsatgan xodimlarini rag'batlantirish Direktor jamg'armasi mablag'lari";

– Stipendiyalar.

II guruh – Ijtimoiy ehtiyojlarga ajratmalar (Ish beruvchilarning ajratmalari) guruhshda mehnat haqi fondiga nisbatan foizlarda hisoblanadigan yagona ijtimoiy to'lov summasi aks ettiriladi. Xarajatlar hisoblab chiqilgan mehnat haqi fondi summasiga nisbatan o'rnatilgan foizlarda hisoblanadi.

IV guruh – "Boshqa xarajatlar" tarkibiga quyidagi xarajat turlari kiradi:

– Xizmat safar xarajatlari;

– Kommunal xizmatlarni to'lash xarajatlari;

– Telefon, telekommunikatsion va axborot xizmatlari xarajatlari;

– Joriy ta'mirlash xarajatlari;

– Saqlash, ekspluatatsion xarajatlar va boshqa xizmatlarni to'lash xarajatlari;

– Texnika, uskunar, joriy maqsadlardagi boshqa buyumlarni va oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olish xarajatlari;

---

<sup>35</sup> O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014-yil, 51-son, 612-modda.

– Boshqa joriy xarajatlar.

Toshkent moliya va iqtisodiyot kollejining 2018-yil 1-yanvar holatiga xarajatlar smetasining ijrosi ma'lumotlari quyidagilar bilan tavsiflanadi (9-jadval):

9-jadval

**Toshkent moliya va iqtisodiyot kollejining 2017-yil bo'yicha xarajatlar smetasining ijrosi<sup>36</sup>**

(ming so'm)

<b>№</b>	<b>Xarajat guruhlari</b>	<b>smeta bo'yicha reja</b>	<b>moliyalashtirish hajmi</b>	<b>jamiga nisbatan ulushi, %</b>
I.	Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar	2 332 210,0	2 332 085,7	72,9
II.	Ijtimoiy ehtiyojlarga ajratmalar	568 124,0	568 089,1	17,8
IV.	Boshqa xarajatlar	299 621,0	296 713,4	9,3
	<b>Jami xarajatlar</b>	<b>3 199 955,0</b>	<b>3 196 888,2</b>	<b>100</b>

Jadval ma'lumotlarining tahlili shundan dalolat bermoqdaki, kollej smeta xarajatlarning qariyb 72,9 foizini I-guruh – Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar tashkil qiladi. ShSh-guruh xarajatlari 17,8 foizni, Boshqa xarajatlar esa 9,3 foizni tashkil qilgan.

Xarajatlarni hisoblab chiqishda quyidagilarga amal qilinadi:

– O'zbekiston Respublikasi qonunlari va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari va farmoyishlari, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, tegishli hokimiyatlarning ularga berilgan huquq va vakolatlar doirasida qabul qilingan qaror va farmoyishlariga;

– byudjet tashkilotlarining belgilangan tartibda tasdiqlangan xarajatlar me'yorlariga;

– tovar va xizmatlarni davlat tomonidan tartibga solinadigan baholari va tariflariga. Jumladan:

<sup>36</sup> Toshkent moliya va iqtisodiyot kollejining hisobot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

– xarajatlar smetasiga ish haqi uchun mablag'lar qonunchilik bilan belgilangan maoshlari va ish haqi stavkalari va ularga qo'shimcha to'lovlardan, amaldagi namunaviy shtatlar va me'yorlarga rioya qilishdan kelib chiqib kiritiladi. Ishbay usul bilan bajariladigan ishlar uchun ish haqi xarajatlar smetasiga byudjet yiliga xarajatlar smetasida ko'zda tutilgan ish hajmlaridan kelib chiqib kiritiladi;

– pedagog xodimlar ish haqi uchun mablag'larni ajratishda, qonunchilikda belgilangan ish haqi stavkalaridan va o'quv rejasiga muvofiq daftar tekshirish, sinf rahbarligi va boshqalar uchun qo'shimcha haq to'lashni hisobga olgan holda tuzilgan tarifkatsiyalardan kelib chiqilishi lozim;

– mehnatga haq to'lash jamg'armasidan yagona ijtimoiy to'lovni to'lash xarajatlari xarajatlar smetasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlariga muvofiq belgilangan stavkalarda, qonunchilikka muvofiq yagona ijtimoiy to'lov to'lanadigan barcha to'lov summalaridan kelib chiqqan holda kiritiladi;

– ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta mukofotini to'lash xarajatlari xarajatlar smetasiga qonunchilikda belgilangan tartibda ish beruvchining barcha xodimlarining o'tgan yilgi ish haqining haqiqiy xarajatlaridan kelib chiqqan holda kiritiladi;

– xo'jalik xarajatlari, jumladan, kommunal xizmatlar uchun xarajatlar limitlar doirasida kommunal xizmatlar uchun baho va tariflarni hisobga olgan holda hisoblanadi;

– telefon va boshqa telekommunikatsiya xizmatlari xarajatlari abonent raqamlari soni va xizmatlar uchun tasdiqlangan tariflaridan kelib chiqib hisoblanadi. Bunda, limitdan oshiq foydalanilgan shaharlararo (davlatlararo) so'zlashuvlar uchun aloqa xizmatlari, internet bo'yicha xizmatlar va boshqa aloqa xizmatlari xarajatlari byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetasida tegishli moliya organlari bilan kelishilgan holda o'zlarining faoliyat xususiyatlaridan va ushbu xizmatlarga bo'lgan talabdan kelib chiqib ko'zda tutiladi;

– tashkilotlarning binolar, inshootlar va transport vositalaridan foydalanish, binolar va transport vositalari, shuningdek boshqa davlat mulklari ijarasi bilan

bog'liq xarajatlari belgilangan limitlar va natural ko'rsatkichlardan kelib chiqib aniqlanadi;

– xizmat safarlari bilan bog'liq xarajatlar tashkilotlarning oldiga qo'yilgan vazifalaridan, shuningdek qonunchilikda belgilangan me'yorlardan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Kollejning xarajatlar smetasida IV-guruh – “Boshqa xarajatlar”ning yoyilmasi ko'rsatiladi. 2017-yil bo'yicha bu xarajatlar tarkibida qanday xarajatlar amalga oshirilganligini quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin (10-jadval):

10-jadval

**Toshkent moliya va iqtisodiyot kolleji xarajatlar smetasining 2017-yil bo'yicha “Boshqa xarajatlar” tarkibi<sup>37</sup>**

(ming so'm)

№	Xarajat moddalari	smeta bo'yicha reja	jamiga nisbatan ulushi, %
<b>IV.</b>	<b>Boshqa xarajatlar</b>	<b>299 621,0</b>	<b>100,0</b>
1.	Kommunal xizmatlar	161 504,0	53,9
2.	Saqlash va joriy ta'mirlash	14 375,0	4,8
3.	Moddiy oborot mablag'lar zahiralariga xarajatlar	11 000,0	3,7
4.	Tovar va xizmatlar sotib olish bilan bog'liq boshqa xarajatlar	11 158,0	3,7
5.	Telefon, telekommunikatsiya va axborot xizmatlari	2 550,0	0,9
6.	Asosiy vositalar sotib olish xarajatlari	64 000,0	21,4
7.	Boshqa turdagi texnika sotib olish	30 000,0	10,0
8.	Boshqa xarajatlar	5039,0	1,7

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turganidek, kollejning xarajatlar smetasi ijrosi bo'yicha IV-guruh “Boshqa xarajatlar”ning tarkibida asosiy o'rinni kommunal xizmatlar bo'yicha to'lovlar egallaydi, bu maqsadlardagi xarajatlar guruh xarajatlarining 53,9 foizini tashkil qilgan. Shuningdek, asosiy vositalar sotib olish, texnika sotib olish bilan bog'liq xarajatlar ham mos ravishda 21,4 va 10,0 foizni tashkil qilgan.

<sup>37</sup> Toshkent moliya va iqtisodiyot kollejining hisobot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi..

### **2.3. O'rta maxsus ta'lim muassasalarida ish haqini rejalashtirish tartibi**

O'MKHT muassasalarining mehnatga haq to'lash jamg'armasi pedagog xodimlar, shu jumladan, kasb-hunar kollejlarda ishlab chiqarish ta'limi ustalari mehnatiga haq to'lash jamg'armasi, ma'muriy xodimlar mehnatiga haq to'lash jamg'armasi, o'quv-yordamchi va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar mehnatiga haq to'lash jamg'armalarini o'z ichiga oladi. Shuningdek, I-guruh xarajatlari Direktor jamg'armasini ham o'z ichiga oladi.

Muassasa tomonidan tuzilgan shtatlar jadvalida pedagog xodimlar ish haqi fondi tarifikatsiya ro'yxatiga asosan keltiriladi. Tarifikatsiya ro'yxatida pedagog xodimlarning malaka toifalari, ular ish vaqtining haqiqiy hajmi va shu kabilar keltiriladi va barcha pedagog xodimlar bo'yicha ish haqi fondining oylik va yillik umumiy miqdori ko'rsatiladi.

Pedagog xodimlar ish haqi fondini hisoblash uchun pedagog xodimlar shtatlari sonini aniqlab olish kerak, ularning soni xodimlarning 1540 soat hajmidagi yillik yuklamasidan kelib chiqib aniqlanadi (shundan 800 soati - o'quv yuklamasi, 740 soati - pedagogik yuklama)<sup>38</sup>.

Ish haqi xarajatlarini rejalashtirish tarifikatsiya ro'yxati asosida amalga oshiriladi, smetani tasdiqlash chog'ida tarifikatsiya ro'yxati smetaga ilova qilinadi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari pedagog xodimlarining kasb mahorati o'sishini rag'batlantirish maqsadida O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilari va ishlab chiqarish ta'limi ustalarini attestatsiyadan o'tkazish hamda ularga malaka toifalari berish tartibi to'g'risidagi Nizom (29.08.2008 y. 1847-son bilan ro'yxatga olingan) bilan belgilanadigan talablarga, shuningdek, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi hamda

---

<sup>38</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.08.2002 y. PF-3112-son Farmoni; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 01.08.2008 y. 165-son qarori.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tomonidan tasdiqlangan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari xodimlari lavozimlarining malaka tavsiflariga muvofiq xodimlarning lavozimlari va malaka toifalari belgilanadi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari rahbar va pedagog xodimlari mehnatiga haq to'lashning bazaviy tarif stavkalari O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza kilish vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazining "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari rahbar va pedagog xodimlari bazaviy tarif stavkalarini tasdiqlash to'g'risida"gi (29.11.2011) qarori bilan o'rnatilgan. Masalan, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari pedagog xodimlari mehnatiga haq to'lashning bazaviy tarif stavkalari miqdorlari keltirilgan bo'lib, ular:

- xodimning lavozimiga;
- xodimning malaka toifasiga;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasining tipiga (akademik litsey/kasb-hunar kolleji) bog'liq ravishda tabaqalashtiriladi

Kasb-hunar kollejlarning birinchi malaka toifasiga, ikkinchi malaka toifasiga ega bo'lgan va malaka toifasiga ega bo'lmagan ishlab chiqarish ta'limi ustalarining bazaviy tarif stavkalari tegishli ravishda kasb-hunar kollejlarning katta o'qituvchisi, oliy ma'lumotli o'qituvchisi va o'rta maxsus ma'lumotli o'qituvchisining bazaviy tarif stavkalariga tenglashtiriladi<sup>39</sup>.

Kasb-hunar kollejlarning boshqa pedagogik xodimlari bazaviy tarif stavkalari miqdorlari ham ularning egallab turgan lavozimi va malaka toifasiga ko'ra tabaqalashtirilgan.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida ixtisoslik ta'lim yo'nalishlari bo'yicha bo'lim mudirlari bazaviy tarif stavkalari miqdorlari bo'limda ta'lim olayotgan o'quvchilar kontingentidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Bosh buxgalter lavozimlari ko'zda tutilgan bo'lib, ularning bazaviy tarif

---

<sup>39</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 19-iyuldagi 224-sonli qaroriga asosan. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012 y., 29-son, 338-modda.

stavkalari miqdorlari ham o'quvchilarning kontingentiga ko'ra O'MKHT muassasalari guruhlarini bo'yicha tabaqalashtirilgan.

O'MKHT muassasalarida umumiy yillik soatlar fondi direktorning o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari tomonidan mazkur ta'lim muassasasidagi guruhlar sonini hisobga olgan holda o'quv rejasi asosida ishlab chiqiladi.

Har bir o'qituvchi bo'yicha o'quv va pedagogik yuklamani taqsimlash tarifikatsiya komissiyasi tomonidan umumiy soatlar fondi asosida amalga oshiriladi. Bunda O'MKHT muassasalaridagi o'qituvchilar soni, ularning o'qitayotgan fanlari bo'yicha mutaxassisligi hamda pedagogik tajribasi va malaka toifasiga e'tibor qaratiladi.

O'qituvchilar tarifikatsiyasi har yili 1 sentyabr holati bo'yicha guruhlar to'ldirilgan va o'quv yuklamalar taqsimlab bo'lingandan so'ng amalga oshiriladi. O'MKHT muassasalarida tarifikatsiya bo'yicha ishlar ta'lim muassasasi rahbarining buyrug'i bilan tashkil etiladigan tarifikatsiya komissiyasi tomonidan o'tkaziladi. Mazkur ishlarni amalga oshirishda direktorning o'quv ishlari va kasbiy tayyorgarlik bo'yicha o'rinbosarlari, kadrlar bo'yicha inspektor, bosh buxgalter va mazkur ta'lim muassasasining kasaba uyushmasi raisi qatnashadi.

O'qituvchilarning umumiy yuklamasi o'quv va pedagogik yuklamalardan tashkil topadi va bir yilga 1540 soatni tashkil etadi<sup>40</sup>. Pedagogik yuklama o'quv yuklamasiga proporsional ravishda 0,925 koeffitsientini qo'llash orqali aniqlanadi.

Namunaviy o'quv reja bo'yicha O'MKHT muassasasi o'qituvchisining oylik yuklamasi 154 soatni, shundan 80 soati - o'quv yuklamasini, 74 soati esa pedagogik yuklamani tashkil etadi. Bir oyda hisoblab chiqarilgan haftalar soni 4,278 ga teng.

O'qituvchilarning umumiy yuklamalari hamda o'quv va pedagogik yuklamalari hajmlarini aniqlash tartibini quyidagi misollarda ko'rib chiqamiz:

---

<sup>40</sup> O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari xodimlari mehnatiga haq to'lash to'g'risida Nizom. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 1-avgustdagi 165-son qaroriga 4-ilova.

1-misol: Matematika o'qituvchisining oylik umumiy yuklamasini topamiz. O'qituvchining oylik o'quv yuklamasi 80 soat hajmida belgilangan (1 stavka). Pedagogik yuklama o'quv yuklamasiga proporsional ravishda 0,925 koeffitsientini qo'llash orqali aniqlanadi. Demak, o'qituvchining pedagogik yuklamasi 74 soatni ( $80 \text{ soat} \times 0,925$ ) soatni tashkil etadi. Shunday qilib, o'qituvchining umumiy yuklamasi ( $80 \text{ soat} + 74 \text{ soat}$ ) 154 soatga teng.

2-misol: Fizika o'qituvchisining oylik umumiy yuklamasini topamiz. Fizika o'qituvchisining oylik o'quv yuklamasi 104 soat hajmida belgilangan (1,3 stavka). Pedagogik yuklama hajmi tegishlicha 96,2 soatni ( $104 \text{ soat} \times 0,925$ ) tashkil etadi. Demak, fizika o'qituvchisining oylik umumiy yuklamasi hajmi 200,2 ( $104 \text{ soat} + 96,2 \text{ soat}$ ) soatga teng.

3-misol: Kasb-hunar kolleji fan o'qituvchisining oylik umumiy yuklamasini topamiz. Kasb-hunar kolleji fan o'qituvchisining (hetakchi o'qituvchi) oylik uquv yuklamasi 60 soat hajmida belgilangan (0,75 stavka). Uning pedagogik yuklamasi hajmi tegishlicha 55,5 soatni tashkil etadi ( $60 \text{ soat} \times 0,925$ ). Demak, o'qituvchining umumiy yuklamasi 115,5 ( $60 + 55,5$ ) soatga teng.

O'MKHT muassasasi pedagog xodimlari mehnatini me'yorlashtirish ularning yillik shaxsiy ish rejalariga asoslanadi. O'qituvchilarning shaxsiy yillik ish rejaları O'MKHT muassasasi ma'muriyati tomonidan kengaytirilgan pedagogik kengashda muhokamadan o'tgandan so'ng tasdiqlanadi va unda rejaga kiritilgan ishlarni bajarishga sarflanishi lozim bo'lgan ish vaqti ko'rsatiladi.

O'MKHT muassasalari o'qituvchilarining ish haqi amaldagi qonunchilikka muvofiq buxgalteriyaga taqdim etiladigan quyidagi birlamchi hujjatlar asosida hisoblab chiqiladi:

- tarifkatsiya ro'yxati;
- O'MKHT muassasasi xodimlarini ishga tayinlash (bo'shatish, yangi lavozimga tayinlash) to'g'risidagi buyruqdan ko'chirma yoki buyruq nusxasi;
- ish vaqtini hisobga olish tabellari;
- vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik varaqasi:

- amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa birlamchi hujjatlar.

O'MKHT muassasalari xodimlariga qonunchilikda belgilangan bir qator qo'shimcha ish haqlari ham to'lanadi. Bu to'lovlarning ayrimlari doimiy o'rnatilgan qo'shimchalar sifatida "ish haqi" kodi bo'yicha byudjetdan, ayrimlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari xodimlari mehnatiga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 1-avgustdagi 165-son qarori bilan tuzilgan Direktor jamg'armasidan moliyalashtiriladi.

Qonun bilan belgilangan qo'shimchalarga noqulay mehnat sharoitlarida ishlagan xodimlar uchun miqdori amaldagi qonunchilikka muvofiq xodimning bazaviy tarif stavkasiga nisbatan foizda hisoblanadigan ustamalar (hududiy koeffitsientlar) kiradi.

Ushbu ustamalardan tashqari, O'MKHT muassasalari o'qituvchilari ish haqiga byudjetdan ajratiladigan quyidagi ustama va qo'shimchalar belgilanadi:

- daftar va yozma ishlarni tekshirganligi uchun - eng kam oylik ish haqining 50 foizi;
- guruhga rahbarlik qilganligi uchun - eng kam oylik ish haqining 100 foizi;
- o'quv va laboratoriya kabinetiga mudirlik qilganligi uchun - eng kam oylik ish haqining 50 foizi;
- sikl rahbarligi uchun - eng kam oylik ish haqining 15 foizi;

San'at va musiqa kollejlari o'qituvchilariga bo'limlarda ta'lim olayotgan o'quvchilar soniga bog'liq holda quyidagi miqdorlarda ustamalar belgilanadi:

- 5 nafardan 100 nafargacha o'quvchilar mavjud bo'lsa - eng kam oylik ish haqining 20 foizi;
- 100 nafar va undan ortiq o'quvchilar mavjud bo'lsa - eng kam oylik ish haqining 30 foizi miqdorida.

Biz yuqorida O'MKHT muassasalari xarajatlar smetasi I-guruhining asosini tashkil qiladigan barcha xodimlar ish haqini hisoblash va mehnat haqi fondini rejalashtirish tartibini ko'rib chiqdik. I guruh xarajatlarini hisoblashda yana shuni

e'tiborga olish lozimki, bu guruhning tegishli kichik moddasida to'liq davlat ta'minotida bo'lgan, yetim va ota-ona qarovisiz qolgan o'quvchilarga o'qishni bitirish va ishga joylashish bo'yicha ajratiladigan bir martalik to'lovlar rejalashtiriladi. Bu nafaqalar, agar bitiruvchi oliy ta'lim muassasasiga kirib, o'qishni davom ettiradigan bo'lsa, ushbu ko'zda tutilgan nafaqalar OTMni tugatganidan keyin to'lanadi. Mazkur nafaqalar miqdori amaldagi eng kam ish haqi miqdorining 100 baravariga teng hajmda belgilanadi.

O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimida olib borilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati, bu tizimidagi ta'limning mazmuni va sifati, ko'p jihatdan O'MKHT kadrlar salohiyatiga, inson omiliga bog'liq. O'MKHT muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonining samaradorligi va sifatini oshirish, professional tayyorgarlikni rag'batlantirish, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'qituvchilari va ishlab chiqarish ta'limi ustalarining mehnatiga haq to'lashning ularning o'quv va tarbiya jarayoniga, o'quvchilarda professional ko'nikmalar shakllanishiga qo'shgan shaxsiy hissasi bilan bevosita o'zaro aloqadorligini ta'minlash, kasb mahorati va malaka o'sishini rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari xodimlari mehnatiga haq to'lash tizimini takomillashtirish va uni moddiy rag'batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2008-yil 30-iyuldagi PQ-929-son qaroriga muvofiq, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasining Direktor jamg'armasi tuzildi va 2008-yil 1-yanvardan e'tiboran amal qilib kelmoqda. "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasining direktor jamg'armasi to'g'risidagi Nizom"<sup>41</sup> bilan ushbu jamg'arma mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi belgilab berildi.

Direktor jamg'armasi barcha o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida tashkil etiladi.

Direktor jamg'armasi mablag'lari quyidagi maqsadlarga yo'naltiriladi:

---

<sup>41</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari xodimlari mehnatiga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to'g'risida"gi 2008-yil 1-avgustdagi 165-son qaroriga 5-ilova.

– o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining faqat yuksak kasb mahoratiga ega bo’lgan va o’quv-tarbiya jarayoni sifati oshishiga aniq shaxsiy hissa qo’shayotgan o’qituvchilari va ishlab chiqarish ta’limi ustalarining bazaviy tarif stavkalariga har oylik ustamalar belgilashga;

– o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari xodimlariga bir yo’la mukofotlar to’lash va moddiy yordam ko’rsatishga (alohida hollarda).

Direktor jamg’armasi mablag’larini shakllantirish manbai Respublika byudjeti va mahalliy byudjetlarda belgilangan tartibda nazarda tutiladigan byudjet ajratmalari hisoblanadi.

Direktor jamg’armasi o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasasi mehnatga haq to’lash fondining 15 foizidan ortiq bo’lmagan miqdorda tashkil etiladi (imkoniyatlari cheklangan va jismoniy rivojlanishida o’ziga xos xususiyatlarga ega bo’lgan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan kollejlarda esa — 25 foizdan ortiq emas).

## **2-bob bo’yicha xulosa**

Ushbu bobga xulosa qilib shuni ta’kidlash lozimki, kollejlari ham davlat ta’lim xizmatlarini amalga oshiruvchi notijorat tashkiloti hisoblanadi, ularga ajratilgan byudjet mablag’lari aniq manzillilik asosida davlat byudjetining g’azna ijrosi yo’li bilan iste’molchilarga yetkaziladi.

O’rta maxsus, kas-hunar kollejlari maqomining o’zgarishi, ularning ta’lim tizimining majburiy shaklidan ixtiyoriylik asosidagi ta’lim shakliga o’tkazilishi ular moliyaviy-xo’jalik faoliyatiga ham ma’lum darajada ta’sir ko’rsatadi, ular mablag’larining manbalari tarkibida byudjet mablag’lari bilan bir qatorda, korxonalar, tashkilotlar, vazirliklar, davlat idoralarining mablag’lari, to’lov-kontrakt asosidagi mablag’lar ortib boradi. Shu jihatdan qaraganda, kasb-hunar kollejlari moliyasini o’rganish va tadqiq qilish masalasi o’z dolzarbligini saqlab qoladi.

### **3-BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA O'RTA MAXSUS TA'LIM MUASSASALARI XARAJATLARINI REJALASHTIRISH VA MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

#### **3.1. Harakatlar strategiyasini amalga oshirish sharoitida o'rta maxsus ta'lim muassasalari faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish**

Biz yuqoridagi boblarda o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimidagi ta'lim muassasalarining byudjet mablag'laridan foydalanish nazariyasi va amaliyotini ko'rib chiqdik. Bu ishni biz 2-bobda O'zbekiston Respublikasi o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari misolida yanada batafsilroq yoritishga harakat qildik. Ushbu III-bobning oldiga qo'yilgan maqsad esa O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning 2017-2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasini amalga oshirish sharoitida o'rta maxsus ta'lim muassasalari faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish yo'llarini tadqiq qilishdan iborat.

Zamonaviy sharoitda mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish va yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ta'lim xizmatlarining ochiqligi va sifati masalalariga davlat tomonidan alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'tgan yillarda kasb-hunar ta'limini rivojlantirish, ta'lim jarayonini modernizatsiyalash va mazmunini yangilashni ta'minlash maqsadida uning huquqiy bazasini mustahkamlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi, iqtidorli yoshlarning xalqaro va respublika olimpiadalari hamda tanlovlarda salmoqli natijalarga erishishlarida ularni manzilli qo'llab-quvvatlash bo'yicha qator tizimli chora-tadbirlar ko'rildi.

Shu bilan birga, umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi rivojlanishini tahlil qilish natijalari tizimning bugungi kun talablariga javob bermasligini va tub islohotlarga muhtojligini ko'rsatdi<sup>42</sup>:

– birinchidan, kasb-hunar kollejlari aholi yashash joylariga yaqin bo'lmagan masofada joylashtirilganligi, ayniqsa, hududlarda transport infratuzilmasi yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda ob-havo sharoitlari tufayli o'quvchilarning vaqti-vaqti bilan ommaviy ravishda dars mashg'ulotlarini qoldirishlariga sabab bo'lmoqda;

– ikkinchidan, kasb-hunar kollejlarning moddiy-texnika bazasini shakllantirishning mavjud amaliyoti kasb-hunar kollejlari ta'lim yo'nalishlariga javob bermaydigan o'quv ustaxonalari tashkil etilishiga, butlovchi va ehtiyot qismlar bilan yetarli darajada ta'minlanmasligiga olib keldi. Kasb-hunar kollejlari moddiy-texnik jihozlanishining o'rtacha darajasi bugungi kunda atigi 56 foizni tashkil etadi, 31 ta kasb-hunar kollejida o'quv ustaxonalari umuman mavjud emas<sup>43</sup>;

– uchinchidan, etarli darajada moliyalashtirilmaganligi natijasida kasb-hunar ta'limi tizimi uchun zarur bo'lgan ko'plab darsliklar va o'quv qo'llanmalari nashr etilmadi, darsliklarning 50 foizi rus va qoraqalpoq tillariga tarjima qilinmagan, amaldagi darsliklar biror marta yangilanmagan;

– to'rtinchidan, kasb-hunar kollejlarda kadrlar tayyorlash tizimi hududlardagi iqtisodiy tarmoqlarning real ehtiyojlaridan ortda qolganligi, shuningdek, kasb-hunar kollejlari uchun belgilangan qabul kvotalarida mehnat bozori kon'yunkturasi va ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish imkoniyatlari hisobga olinmasligi bitiruvchilarni ishga joylashtirishda qiyinchilik tug'dirmoqda;

---

<sup>42</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-yanvardagi "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5313-son Farmoni (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 25.01.2018 y., 06/18/5313/0618-son).

<sup>43</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-yanvardagi "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5313-son Farmonning 5-xatboshi (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 25.01.2018 y., 06/18/5313/0618-son).


– beshinchidan, kasb-hunar kollejlardagi mavjud o'quv jarayonini tashkil etishning hozirgi holati, qo'llanilayotgan o'quv-normativ hujjatlar hamda o'qitish muddatlari kasblarning murakkablik darajasiga javob bermaydi, ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etishdagi kamchiliklar olinayotgan bilim darajasi tushib ketishiga va tegishli ravishda qator ta'lim yo'nalishlari bo'yicha bitiruvchilarga bo'lgan ehtiyojning pasayishiga olib keladi va natijada o'qishni tamomlagandan keyin ish joylarida ularni qo'shimcha o'qitish zaruratini keltirib chiqarmoqda;

– oltinchidan, aholi turli toifalarini “Hayot davomida ta'lim olish” printsipli bo'yicha kasbga tayyorlash tizimining yetarli rivojlanmaganligi aksariyat katta yoshli aholi, shuningdek, ishsiz yoshlar va nogiron shaxslarning mehnat bozorida keraksiz bo'lib qolishiga olib kelmoqda;

– ettinchidan, kasb-hunar kollejlarda o'quv jarayonini tashkil etishga va o'quvchilarni intellektual, ma'naviy-ma'rifiy tarbiyalashga yuzaki yondashish, ularning bo'sh vaqtlarini band etishning samarasiz mexanizmi o'quvchilar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarlik va jinoiy qilmishlar soni ortishiga, ularning o'qishga qiziqishi hamda davomatning tushib ketishiga sabab bo'lmoqda.

Yuqoridagi holatlarning chuqur tanqidiy tahlili natijasida 2017-2018-o'quv yilidan boshlab 11 yillik majburiy umumiy o'rta ta'lim tizimiga o'tildi va bu qaror keng jamoatchilik, ota-onalar va 9-sinflar bitiruvchilari tomonidan keng ko'llab-quvvatlandi.

Ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish, malakali kadrlar tayyorlash uchun shart-sharoitlar yaratish, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari bandligini ta'minlash, shuningdek, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish maqsadida 2018-2019-o'quv yilidan boshlab majburiy umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim umumta'lim maktablarida, shu jumladan, ixtisoslashtirilgan maktablarda, ixtisoslashtirilgan san'at va madaniyat maktab-internatlarida, ixtisoslashtirilgan olimpiya zaxiralari maktab-internatlarida hamda akademik litseylarda uzluksiz va 11 yillik muddatda amalga oshiriladigan bo'ldi.



**5-rasm. Majburiy umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limni amalga oshiruvchi muassasalarning guruhlanishi<sup>44</sup>**

2019-2020-o'quv yilidan boshlab kasb-hunar kollejlariga o'qishga qabul qilish umumta'lim maktablarining 11-sinflari bitiruvchilari hisobidan, ixtiyoriylik asosida, tegishli mutaxassislikka (kasbga) ega bo'lish uchun 6 oydan 2 yilgacha bo'lgan o'qitish muddatlarida amalga oshiriladi.

Kasb-hunar ta'limi sohasida kadrlar tayyorlash tizimining muhim vazifalari sifatida quyidagilar belgilab qo'yildi:

- iqtisodiyotning rivojlanish istiqbollari va ustuvor vazifalarini, zamonaviy texnika va texnologik tendensiyalarni hisobga olib ehtiyoj yuqori bo'lgan va turdosh mutaxassisliklar bo'yicha zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq qilgan holda ishlash bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan va kamida ikkita xorijiy tilni biladigan malakali kadrlarni tayyorlash;

- kadrlarga bo'lgan real ehtiyojni, ish beruvchi korxonalarining takliflarini hisobga olgan holda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari uchun zarur mutaxassislar

<sup>44</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-yanvardagi "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5313-son Farmonning 1-bandi asosida muallif tomonidan tuzildi (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 25.01.2018 y., 06/18/5313/0618-son).

tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash bo'yicha kasb-hunar kollejlari faoliyatini muvofiqlashtirish;

– yoshlarni har tomonlama barkamol qilib, vatanparvarlik va milliy mustaqillik g'oyalariga sodiqlik ruhida tarbiyalashga, shuningdek, o'quvchilarda boy ilmiy, madaniy va ma'naviy merosimizga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy va axloqiy sifatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonni yangi pedagogik shakllar va usullar asosida tashkil etish;

– yetakchi mahalliy va xorijiy ta'lim muassasalari bilan har tomonlama hamkorlikni rivojlantirish, zamonaviy innovatsion o'quv loyihalarini birgalikda amalga oshirish uchun kasb-hunar ta'limi sohasiga yuqori malakali xorijiy mutaxassislarni jalb etish;

– kasb-hunar ta'limi milliy standartlari talablarini xalqaro ta'lim standartlari tasniflagichiga, xalqaro malaka talablariga muvofiqlashtirish, milliy malaka talablarini bosqichma-bosqich xalqaro analoglarga moslashtirish va e'tirof etilishiga qaratilgan ishlarni tashkil etish;

– kasbga o'rgatish bilan bir qatorda tarkibiy jihatdan umumiy ta'lim olishni birgalikda olib boradigan, shuningdek, nodavlat ta'lim sektorini uzluksiz davlat ta'lim tizimi bilan samarali integratsiyalash, tabaqalashtirilgan ta'lim jarayonini tashkil etish bo'yicha orttirilgan amaliy tajribani tizimlashtirish va kelgusida amaliyotga joriy etish;

– mamlakat iqtisodiyotini yanada isloh qilish, uni barqaror o'stirish hamda modernizatsiyalash jarayonlarida samarali ishtirok etishga qodir bo'lgan kadrlarni tayyorlash maqsadida o'quv jarayoniga innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va ishlanmalarni faol qo'llab kasb-hunar ta'limi va ishlab chiqarishning o'zaro yaqin hamkorligini ta'minlash;

– yuqori samarali o'quv-laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi va innovatsion texnologiyalarga asoslangan parklar bilan jihozlangan kasb-hunar

kollejlarning zamonaviy moddiy-texnika bazasini shakllantirish va yanada mustahkamlash, undan samarali foydalanish chora-tadbirlarini amalga oshirish.

Yuqorida nomi keltirilgan qaror bilan quyidagilar belgilab qo'yildi:

– kasb-hunar kollejlari aksariyat hollarda vazirliklar, idoralar, xo'jalik birlashmalari, tijorat banklari hamda yirik korxonalar — tarmoq bo'ysunuvi bo'yicha kadrlarga buyurtmachilar tarkibida faoliyat yuritadi;

– kasb-hunar kollejlarning beriladigan binolari, inshootlari, jihozlari, mebel va inventari qiymati qo'shilgan qiymat solig'i va daromad solig'ini hisoblab chiqishda soliq solish obyekti hisoblanmaydi;

– 2017-2018-o'quv yiligacha kasb-hunar kollejlariga qabul qilingan o'quvchilar o'qishni to'liq tugatguniga kadar ushbu kasb-hunar kollejlarning xarajatlari O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti mablag'lari hisobidan ta'minlanadi;

– vazirliklar, idoralar, xo'jalik birlashmalari, tijorat banklari va yirik korxonalarining tasarrufidagi kasb-hunar kollejlarni saqlash, kadrlarni o'qitish, malakasini oshirish va qayta tayyorlashga maqsadli tarzda yo'naltirilgan mablag'lari barcha turdagi soliqlardan va davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalardan ozod etiladi.

### **3.2. O'rta maxsus ta'lim tizimi moliyaviy ta'minotini mustahkamlash yo'llari**

O'tgan yillar mobaynida ta'lim tizimini tubdan yangilash va isloh etish bo'yicha miqyosi va ko'lamiga ko'ra ulkan ishlar amalga oshirildi.

Taraqqiyotning hozirgi bosqichida byudjet tashkilotlariga keng imkoniyatlar berish bilan bir vaqtda, byudjet xarajatlarining oshishiga yo'l qo'ymaslik ham muhim hisoblanadi. Respublikamizda byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirish jarayonlari, albatta, kamchiliklardan xoli emas. Ayrim hollarda moliyalashtirish jarayonlari uchun normativ hujjatlarning to'liq emasligi,

xarajatlarni amalga oshirish vazifalari to'laqonli bajarilmasligi holatlari kuzatilmoqda.

Bu borada o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimining pedagog kadrlarini qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish jarayonlarini moliyalashtirish masalalari ham alohida o'rganish predmeti bo'ladi. Bu jarayonlarni moliyalashtirish davlat byudjetining respublika byudjeti mablag'lari hisobidan quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Kasb-hunar ta'limi markazi, Kasb-hunar ta'limi hududiy boshqarmalari va tasarrufida kasb-hunar ta'limi muassasalari bo'lgan vazirliklar, idoralar va tashkilotlar, kasb-hunar ta'limi muassasalari rahbar va pedagog kadrlarini o'qitishning buyurtmachisi hisoblanadilar.

Kasb-hunar ta'limi markazi Kasb-hunar ta'limi hududiy boshqarmalaridan olgan ma'lumotlar asosida har yili dekabr oyining birinchi o'n kunligida kelgusi yil uchun rahbar va pedagog kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashning prognoz reja-dasturini tuzadi. Tuzilgan prognoz reja-dasturiga muvofiq dekabr oyining uchinchi o'n kunligida muassasalarning rahbar va pedagog kadrlari malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash kurslaridan o'tishning har yillik jadvalini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi, jadvalda toifalar bo'yicha tinglovchilar kontingentining taqsimlanishi, viloyatlar, oliy ta'lim muassasalari va institut bo'yicha malaka oshirish hamda qayta tayyorlash kurslarini o'tkazishning joyi va vaqti, turlari va shakllari ko'rsatiladi.

Rejalashtirilgan mablag'lar doirasida Kasb-hunar ta'limi hududiy boshqarmalari tomonidan mos ravishda 41 ta ixtisoslashgan oliy ta'lim muassasalari bilan, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimi pedagog kadrlarini malakasini oshirish va qayta tayyorlash o'quv kurslarini tashkil etish yuzasidan shartnomalar imzolanadi va o'quv kurslari tashkil etiladi. 2015-2017-yillarda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimining pedagog kadrlari qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish jarayonlari uchun quyidagicha mablag'lar rejalashtirilgan va sarflangan.

Jadvalda keltirilgan rejalashtirilgan mablag'lar va ularning kassa ijrosi dinamikasi ajratilgan mablag'lar yillik qabul rejalari, shuningdek, respublikadagi

eng kam oylik ish haqining o'zgarishiga bog'liq ravishda tasdiqlangan kalkulyatsiyalar asosida o'sib borgan.

11-jadval

**Respublika bo'yicha o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi pedagog kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash xarajatlari<sup>45</sup>**

(mln.so'mda)

Nomi	2015-yil		2016-yil		2017-yil	
	reja	haqiqat	reja	haqiqat	reja	haqiqat
Malakasini oshirish va qayta tayyorlash tadbirlari	80230,80	75467,70	93886,70	87517,90	98832,60	96193,90

Kasb-hunar ta'limi tizimining rahbar xodimlari malakasini oshirish tadbirlari uchun respublika byudjeti mablag'lari hisobidan quyidagicha moliyalashtirilgan.

12-jadval

**O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi rahbar xodimlari malakasini oshirish tadbirlari uchun sarflangan mablag'lar<sup>46</sup>**

(mln.so'mda)

Nomi	2015-yil		2016-yil		2017-yil	
	reja	haqiqat	reja	haqiqat	reja	haqiqat
Kasb-hunar ta'limi tizimi rahbar xodimlari malakasini oshirish va qayta tayyorlash tadbirlari	2 677,68	2 522,05	2 265,35	1 848,69	2 430,10	2 378,17

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi rahbar xodimlari malakasini oshirish tadbirlarida malaka oshirish bilan birga, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimiga

<sup>45</sup> O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi, Ijtimoiy soha va fanni moliyalashtirish bosh boshqarmasi xarajatlar smetasi ijrosi yig'ma hisoboti 2-shakl ma'lumotlari asosida.

<sup>46</sup> O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi, Ijtimoiy soha va fanni moliyalashtirish bosh boshqarmasi tomonidan qabul qilingan, xarajatlar smetasi ijrosi hisoboti 2-shakl ma'lumotlari.

zahira kadrlarni tayyorlash, pedagoglarni qayta tayyorlash va binolarni saqlash harajatlari ham hisobga olingan.

2015-2017-yillarda Moliya vazirligining Ijtimoiy soha va fanni moliyalashtirish bo'limidan O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi rahbar xodimlar malakasini oshirish tadbirlari uchun ajratilgan shtat birliklari soni o'rganilib chiqilganda quyidagilar aniqlandi:

Malaka oshirish tadbirlari uchun professor-o'qituvchilar shtat birliklari bir o'qituvchiga to'g'ri keladigan tinglovchilar soni nisbatining cheklangan me'yorlari asosida hisoblab topilgan. Qolgan shtat birliklari soni namunaviy shtat birliklari asosida, shuningdek, xodimlarning cheklangan soni doirasida, balansda mavjud bo'lgan bino va inshootlar, ularning maydoni, asosiy vositalar, tovar-moddiy zahiralardan kelib chiqqan holda shakllantirilgan.

Kasb-hunar ta'limi rahbar xodimlari malakasini oshirish tizimi faoliyatini 2015-2017-yillarda moliyalashtirish va uning ijrosi holatlari ko'rib chiqilganda asosan takomillashtirilishi talab etiladigan holatlar sifatida quyidagilar ko'rib o'tildi:

1. Kasb-hunar ta'limi rahbar xodimlar malakasini oshirish tizimi faoliyatini moliyalashtirish bo'yicha pedagog xodimlardan tashqari, qolgan shtatlarni shakllantirishda namunaviy shtatlar jadvalining mavjud emasligi. 2015-2017-yillar davomida shtatlar har yili, o'tgan yilgi shtatlar doirasida, shuningdek, "Oliy ta'lim muassasalari boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlarining namunaviy shtatlari" asosida tashkil etib kelingan. Natijada, namunaviy shtatning oliy ta'lim muassasalari uchun ishlab chiqilgan 500 tagacha talaba bo'lgan chegarasi doirasida shtatlar olingan. Bunday holat malaka oshirish jarayoni faoliyati uchun zarur bo'lgan shtat birliklari emas, balki namunaviy shtatlar jadvalida mavjud, ammo malaka oshirish jarayoni faoliyati uchun zarur bo'lmagan shtatlarning qo'shilishiga sabab bo'lgan.

2. Byudjet kodeksida belgilab qo'yilishicha, byudjet tashkilotlarida aosiy smeta va shtatlar jadvali joriy yilning 10-martigacha taqdim qilinib, 1-apreligacha tasdiqlanishi lozim. 2015-2017-yillardagi o'rganishlarda mazkur holat sabab bo'lib

ham ayrim kamchiliklar kuzatilgan. 2017-yilning birinchi choragida vaqtinchalik harajatlar smetasi tasdiqlanadi va unda shtatlar jadvali nazarda tutilmaydi. Vaqtinchalik smeta harajatlari asosida oylik maosh to'lanib kelingan ayrim shtat birliklari asosiy smeta tasdiqlanishi jarayonida, tizim uchun ajratilgan umumiy mablag'lar doirasida qisqartirilgan. Agar namunaviy shtat tasdiqlansa, mazkur holatlarning ham oldi olinadi.

3. Ta'lim tizimidagi rahbar hodimlar malakasini oshirish tizimida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi rahbar kadrlarining malakasini oshirish jarayonidan tashqari, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzurida, Oliy ta'lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bosh ilmiy-metodik markazi va A.Avloniy nomidagi xalq ta'limi tizimi rahbar va mutaxassis xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti faoliyat yuritadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2012-yil 26-sentyabrdagi 278-qarori asosida Bosh ilmiy-metodik, mintaqaviy va tarmoq markazlari o'qituvchilari va tinglovchilari sonining bir nafar o'qituvchi hisobiga nisbatining cheklangan normativlari ta'limning tegishli yo'nalishlari bo'yicha oliy ta'lim muassasalarida belgilangan bir nafar o'qituvchi hisobiga talabalar soni nisbatining cheklangan normativlaridan 25 foiz past etib tasdiqlangan.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 1-dekabrdagi 961-son qarori bilan tasdiqlangan A. Avloniy nomidagi xalq ta'limi tizimi rahbar va mutaxassis xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Nizomida institut professor-o'qituvchilari va tinglovchilari sonining bir nafar o'qituvchi hisobiga nisbatining cheklangan me'yorlari oliy ta'lim muassasalarida belgilangan bir nafar o'qituvchi hisobiga talabalar soni nisbatining cheklangan me'yorlaridan 25 foiz past etib tasdiqlangan.

5. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi malaka oshirish jarayonlari uchun esa mazkur 25 foiz past etib belgilash me'yori nazarda tutilmagan. Natijada, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi malaka oshirish jarayonida professor-

o'qituvchilar yillik o'quv yuklamalarining bajarilishi belgilangan me'yorlardan yuqoriligi, o'quv soatlari hajmi yanada oshib ketmasligi sababidan guruhlarda belgilangan me'yorlardan ortiq tinglovchilar bo'lish holatlari mavjud. Albatta, bu holatlar malaka oshirish o'quv kurslarini sifatli tashkil etish jarayonlariga ta'sir o'tkazmasdan qolmaydi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-3504-son Qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi negizida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining Kasb-hunar ta'limi markazi tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi huzuridagi O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi kadrlari malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash instituti hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi huzuridagi O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini axborot-metodik ta'minlash xizmati negizida Markaz huzurida Kasb-hunar ta'limi tizimini innovatsion rivojlantirish, pedagog kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash instituti tashkil etildi.

Shuningdek, kasb-hunar kollejlarning moliyalashtirish manbalari sifatida quyidagilar belgilandi:

1. Vazirliklar va idoralarning iqtisodiyotning tegishli tarmoqlari uchun kadrlar tayyorlashga ixtisoslashtiriladigan kasb-hunar kollejlari faoliyatini moliyalashtirishning asosiy manbalari:

- to'lov-kontrakt asosida o'qish uchun tushadigan mablag'lar;
- vazirliklar va idoralarning ushbu maqsadlarga xarajatlar smetasida har yili nazarda tutiladigan byudjet mablag'lari va byudjetdan tashqari mablag'lari;
- qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar mablag'lari.

2. Xo'jalik birlashmalari, tijorat banklari va yirik korxonalarining iqtisodiyotning tegishli tarmoqlari uchun kadrlar tayyorlashga ixtisoslashtiriladigan kasb-hunar kollejlari faoliyatini moliyalashtirishning asosiy manbalari:

- to'lov-kontrakt asosida o'qish uchun tushadigan mablag'lar;
- xo'jalik birlashmalari, tijorat banklari va yirik korxonalarining mablag'lari;
- qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar mablag'lari.

3. Ko'p tarmoqli kasb-hunar kollejlari faoliyatini moliyalashtirishning asosiy manbalari – mutaxassislarni to'lov-kontrakt asosida o'qitish va qayta tayyorlash uchun ota-onalar va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning, shu jumladan, tadbirkorlik sub'ektlarining mablag'lari.

PQ-3504-sonli Prezident Qarori bilan kam ta'minlangan oilalardan o'quvchilar kasb-hunar (ko'p tarmoqli) kollejlari, ularning idoraviy mansubligidan qat'i nazar, bepul asosda o'qitiladigan tartib belgilab qo'yildi.

Xulosa qilib shuni e'tirof etish kerakki, vazirliklar va idoralarga quyidagi vazifalarning bajarilishini ta'minlash, xo'jalik birlashmalari, tijorat banklari va yirik korxonalariga amalga oshirish tavsiya etildi:

– o'quvchilarning ishlab chiqarish amaliyotini, qoidaga ko'ra, ishlab chiqarishning idoraviy mansub obyektlarida kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini keyinchalik ularda ishga joylashtirish maqsadida tashkil etish;

– kasb-hunar kollejlari saqlash, ularning xarajatlarini moliyalashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash;

– kasb-hunar kollejlari o'zini o'zi qoplashini oshirish maqsadida belgilangan tartibda ta'lim xizmatlari ko'rsatilishini, faoliyatining tadbirkorlik, maslahatlar berish, ekspert, noshirlik, ishlab chiqarish, innovatsion va boshqa turlarini yo'lga qo'yish.

### **3-bob bo'yicha xulosa**

Iqtisodiyotning rivojlanish istiqbollari va ustuvor vazifalarini, zamonaviy texnika va texnologik tendensiyalarni hisobga olib ehtiyoj yuqori bo'lgan va

turdosh mutaxassisliklar bo'yicha zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq qilgan holda ishlash bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan va kamida ikkita xorijiy tilni biladigan malakali kadrlarni tayyorlashni yo'lga qo'yish lozim.

Kadrlarga bo'lgan real ehtiyojni, ish beruvchi korxonalarining takliflarini hisobga olgan holda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari uchun zarur mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash bo'yicha kasb-hunar kollejlari faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadga muvofiq.

Kasbga o'rgatish bilan bir qatorda tarkibiy jihatdan umumiy ta'lim olishni birgalikda olib boradigan, shuningdek, nodavlat ta'lim sektorini uzluksiz davlat ta'lim tizimi bilan samarali integratsiyalash, tabaqalashtirilgan ta'lim jarayonini tashkil etish bo'yicha orttirilgan amaliy tajribani tizimlashtirish va kelgusida amaliyotga joriy etish zarur.

Kasb-hunar kollejlari aksariyat hollarda vazirliklar, idoralar, xo'jalik birlashmalari, tijorat banklari hamda yirik korxonalar – tarmoq bo'ysunuvi bo'yicha kadrlarga buyurtmachilar tarkibida faoliyat yuritadi.

Kasb-hunar kollejlarining beriladigan binolari, inshootlari, jihozlari, mebel va inventari qiymati qo'shilgan qiymat solig'i va daromad solig'ini hisoblab chiqishda soliq solish obyekti hisoblanmaydi.

Vazirliklar, idoralar, xo'jalik birlashmalari, tijorat banklari va yirik korxonalarining tasarrufidagi kasb-hunar kollejlarini saqlash, kadrlarni o'qitish, malakasini oshirish va qayta tayyorlashga maqsadli tarzda yo'naltirilgan mablag'lari barcha turdagi soliqlardan va davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalardan ozod etiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur bitiruv malakaviy ishda biz tomondan O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini moliyalashtirishning bugungi kundagi holatini, ta'lim tizimining muhim bo'g'inlaridan biri bo'lgan o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarini moliyalashtirish usullari tavsifini, bu usullar ichida ta'lim tizimi iste'molchilariga qaratilgan bir o'quvchi soniga ko'ra xarajatlarni rejalashtirish va moliyalashtirishning mazmuni va afzalliklari, O'zbekiston hukumati qarorlarida ko'zda tutilgan bir o'quvchiga xarajatlarning bazaviy me'yorlaridan kelib chiqqan holda kasb-hunar kollejlarining byudjetini rejalashtirish va xarajatlarini moliyalashtirishning yangi tartibini joriy etish masalalarini tadqiq etdik. Tadqiqotlarni olib borish davomida Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning ta'lim tizimi taraqqiyoti va, ayniqsa, uni moddiy-texnik va moliyaviy ta'minlash, moliyalashtirishning yangi ilg'or usullarini qo'llashga taalluqli ma'ruzalarini, qolaversa, matbuotda chop etilgan, turli ilmiy anjumanlarda ko'tarilgan ta'lim tizimida moliyalash va rejalashtirishning yangi usullari xususiyatlarini o'rgandik.

Olib borgan izlanishlarimiz asosida shakllangan xulosa va takliflarimiz quyidagilardan iborat:

1. O'zbekiston Respublikasi yaqin va uzoq xorijdagi davlatlar ichida ta'lim tizimi uchun davlat byudjetidan eng ko'p mablag' ajaratayotgan davlat hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichning hatto rivojlangan davlatlar ko'rsatkichlaridan ham balandligi, ya'ni faqat davlat byudjetidan ajratilayotgan mablag'lar YaIM ning 7-8 foizini, boshqa barcha manbalaridan esa 10-12 foizini tashkil qilishi davlat tomonidan ta'lim tizimiga e'tiborning yuqori ekanligidan dalolat beradi.

2. Bugungi kunda ta'lim sohasini boshqarish va moliyalashtirishda davlatning ustuvorligi saqlanib kelmoqda. Bu holatni qabul qilinayotgan davlat dasturlarida, prezident qarorlari va farmonlarida, hokimiyatlarning qarorlarida ko'rish mumkin. Boshqacha aytganda, fuqarolarning ta'lim olish bilan bog'liq konstitutsiyaviy huquqlari to'laonli ta'minlanmoqda.

3. Mamlakatimizda o'rtta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarini saqlash va rivojlantirish xarajatlari asosan davlat byudjeti mablag'lari hisobidan amalga oshirilmoqda.

4. O'zbekistonda ta'lim tizimida jon boshiga moliyalashtirishni keng miqyosda tatbiq etish uchun zarur sharoitlar yaratilmoqda. Barcha ta'lim muassasalarida bir o'quvchiga o'rnatilgan bazaviy me'yorlar asosida muassasa byudjetini rejalashtirish va xarajatlarini moliyalashtirishga o'tish sharoitlarini belgilab bergan hukumat qarorlarining qabul qilinishi bu yo'nalishdagi qat'iy qadam bo'ldi. Lekin bundan keyin ham bu yo'ldagi ishlarni rivojlantirish zarur. Fikrimizcha, davlat byudjetidan ta'lim tizimiga ajratilayotgan xarajatlar jami byudjet xarajatlarining 34-35 foizini tashkil qilayotgan bir davrda bu mablag'larni rejalashtirish va oqilona sarflash masalalari davlat moliyasini boshqarish sohasiga mutaxassis kadrlar tayyorlashga yangi talablarni qo'yadi, shu mavzularni o'rgatish uchun soatlar sonining ko'paytirilishini talab etadi.

5. Byudjet mablag'larining cheklanganligi sharoitida ta'lim muassasalarining byudjetdan tashqari daromad topishlari uchun shart-sharoitlar yaratib berish ta'lim tizimining moddiy ta'minotiga va unda ishlovchilarning qo'shimcha daromad topishlari imkoniyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim muassasalarining o'z faoliyat turlari bo'yicha qo'shimcha pullik xizmat ko'rsatishlarini rag'batlantirish esa aholining ta'lim xizmatlariga oshib borayotgan ehtiyojini to'laroq qondirish imkonini beradi.

6. Ma'lumki, ta'lim bu davlatning strategik resursi, bu tizimga qilingan investitsiya – kelajak taraqqiyotiga qo'yilgan kapitaldir, shuning uchun ham bu sektorni bozor tamoyillariga bo'ysundirish yaramaydi, bu soha har doim davlatning diqqat e'tiborida va qo'llab-quvvatlashida bo'lishi lozim, deb hisoblaymiz.

7. O'rtta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimiga nodavlat mablag'larini, jumladan, korxonalarining mablag'lari, xorijiy tashkilotlar, hayriya tashkilotlari mablag'larini jalb etish tizimning ortib borayotgan ehtiyojlarini qo'shimcha moliyalash imkonini bergan bo'lardi, masalan, kompyuterlar, sport jihozlari,

laboratoriya jihozlari kabilar bilan ta'minlash masalalarida xorijiy tashkilotlar va ishlab chiqarish korxonalarini bilan hamkorlik yaxshi natijalar bergan bo'lardi.

8. Iqtisodiyotning rivojlanish istiqbollari va ustuvor vazifalarini, zamonaviy texnika va texnologik tendensiyalarni hisobga olib ehtiyoj yuqori bo'lgan va turdosh mutaxassisliklar bo'yicha zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq qilgan holda ishlash bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan va kamida ikkita xorijiy tilni biladigan malakali kadrlarni tayyorlashni yo'lga qo'yish lozim.

9. Kadrlarga bo'lgan real ehtiyojni, ish beruvchi korxonalarining takliflarini hisobga olgan holda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari uchun zarur mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash bo'yicha kasb-hunar kollejlari faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadga muvofiq.

10. Kasbga o'rgatish bilan bir qatorda tarkibiy jihatdan umumiy ta'lim olishni birgalikda olib boradigan, shuningdek, nodavlat ta'lim sektorini uzluksiz davlat ta'lim tizimi bilan samarali integratsiyalash, tabaqalashtirilgan ta'lim jarayonini tashkil etish bo'yicha orttirilgan amaliy tajribani tizimlashtirish va kelgusida amaliyotga joriy etish zarur.

11. Bugungi kunda kasb-hunar ta'limi muassasalarida bir o'quvchiga bazaviy xarajatlar me'yorlarini ishlab chiqishda oldingi yil ko'rsatkichlari asos qilib olinmoqda, aslida bu bazaviy me'yor muassasaning ehtiyojlarini minimal darajada bo'lsa ham inobatga olgan holda aniqlanishi kerak, shundagina jon boshiga qarab mablag' ajratish samarasi yuqori bo'ladi. Shuningdek, xarajatlarning bazaviy me'yorlariga ko'ra muassasa byudjetini aniqlashning yuqoridagi bobda (amaldagi me'yoriy hujjatlarga tayangan holda) bayon qilingan formulasi ancha murakkab bo'lib, aslida formula asosida rejalashtirish aniq, sodda va hamma uchun tushunarli, ochiq-oydin va shaffof bo'lishi kerak, deb hisoblaymiz.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

### 1. Me‘yoriy-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014-y., 16-son, 176-modda.

2. O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi qonuni. O‘RQ-360-son, 26.12.2013. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015-y. 52-son, 645-modda.

3. “Ta’lim to’g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. O‘RQ-464-I-son. 29.08.1997. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018 y., 03/18/456/0512-son; 19.04.2018 y., 03/18/476/1087-son.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni, Xalq so‘zi, 2017-y., 28 (6722)-son; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.

5. “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” Davlat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishning tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 17-dekabr F-4760-son farmoyishi. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 8-son, 119-modda.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-yanvardagi “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5313-son Farmoni (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 25.01.2018 y., 06/18/5313/0618-son).

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 22-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining 2016-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozlari va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-2455-sonli qarori.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining 2017-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozlari va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-2699-sonli qarori.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining 2018-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozlari va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-3454-sonli qarori.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-martda “Moliya organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2847-son Qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 13-son, 201-modda.

11. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlar yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevralda PF-4947-sonli Farmoniga 2-ilova.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrda “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-3304-son Qarori. Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 30.09.2017 y., 07/17/3304/0037-son.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-fevralda “O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi markazi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-3504-son Qarori. (Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 03.02.2018 y., 07/18/3504/0654-son).

14. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-yanvarda PF-5308-sonli Farmoniga ilova.

15. Bir nafar o‘quvchiga xarajatlarning bazaviy me‘yorlaridan kelib chiqqan holda davlat o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalarining 2017-yilgi byudjetini rejalashtirish va xarajatlarini moliyalashtirish tartibi to‘g‘risida Nizom (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, OO‘MTV O‘MKHTMning 9.03.2017 y. 26/14 QQ-son qo‘shma qarori).

16. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2014-yil 15-dekabrda 2634-son bilan ro'yxatga olingan "Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom". O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014-yil, 51-son, 612-modda.

17. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari xodimlari mehnatiga haq to'lash to'g'risida Nizom. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 1-avgustdagi 165-son qaroriga 4-ilova.

## **2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma'ruzalari**

18. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. –T.: O'zbekiston. NMIU. 2015. 304 b.

19. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir. T.: O'zbekiston. 2016. 72 b.

20. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq / Sh.M. Mirziyoyev. – T.: O'zbekiston, 2016. - 56 b.

21. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Prezedentining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. Xalq so'zi // 8.12.2016.

22. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor

yoʻnalishlariga bagʻishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi maʼruza, 2017-yil 14-yanvar / Sh.M.Mirziyoyev. – T.: Oʻzbekiston, 2017. – 104 b.

23. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida soʻzlagan nutqi. Xalq soʻzi gazetasi. 20.09.2017.

24. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir. – T.: “Oʻzbekiston” NMIU, 2018 y. – 64 b.

25. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.: “Oʻzbekiston” NMIU, 2018 y. – 80 b.

### **3. Darslik va oʻquv adabiyotlari**

26. Abdurahmonov Q.X. Inson taraqqiyoti. Darslik. i.f.d., prof. Abdurahmonov Q.X. tahriri ostida. – T.: Iqtisodiyot, 2013.

27. Abdurahmonov Q.X. va boshqalar. Ijtimoiy soha iqtisodiyoti. Darslik. –T.: “Iqtisodiyot”, 2013,– 378 b.

28. Gʻaybullaev O., Oʻroqov U. Oʻzbekiston Respublikasida byudjet tizimi va jarayoni. Oʻquv qoʻllanma. – T.: “Baktria press”, 2016 y. – 168 b.

29. Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. Risola / Bekmurodov M. va boshqalar. – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017 y. – 108 bet.

30. Nurmuxamedova B.I, Srojiddinova Z.X. Oʻzbekiston Respublikasida taʼlim xarajatlarini rejalashtirish. T.: “Info Capital Group”. 2013. 460 b.

31. Nurmuxamedova B., Kabirova N. Moliya, Oʻquv qoʻllanma. T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2018. 224 b.

32. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqini oʻrganish boʻyicha ilmiy-ommabop risola. – T.: “Maʼnaviyat”, 2017 y. – 184 b.

33. Poʻlatov D.X, Nurmuxamedova B.I. Gʻaznachilik. Darslik. – T.: “Sano-standart”, 2014. – 272 b.

34. Robert D.Lee Jr., Ronald W.Johnson, Philip G.Joyce. Public budgeting systems. Jones & Bartlett Learning; 9 edition. USA, 2012. – P. 667.

35. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik / TMI – T.: “Noshir”, 2012. – 712 b.

36. 2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o‘rganish bo‘yicha ilmiy-uslubiy risola. – T.: “Ma’naviyat”, 2017 y. – 416 b.

#### **4. Davriy nashrlar (gazeta va jurnallar)**

37. Alper Goksu Gonca Gungor Goksu. A Comparative Analysis of Higher Education Financing in Different Countries. Procedia Economics and Finance. 2015, Pages 52-58. <https://www.sciencedirect.com/science/article>.

38. FutaoHuang. Higher education financing: Trends and challenges. International Journal of Educational Development. January 2018, Pages 106-115

39. Rejapov X.X. Oliy ta‘lim tizimida xorij tajribasi va ulardan foydalanish imkoniyatlari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2017-yil.

40. Sohnke M.Bartram in good times and in bad: Defined-benefit pensions and corporate financial policy. Journal of Corporate Finance. February 2018, Pages 331-351.

41. O‘zbekiston moliyasi / Финансы Узбекистана. – 2017. Statistika to‘plam. O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi.

42. O‘zbekiston raqamlarda / Узбекистан в цифрах. – 2017. Statistika to‘plam. O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi.

43. Zayniddinov F.Sh. Ijtimoiy sohani rivojlantirishning o‘rni va ahamiyati. “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. №2, aprel, 2017 yil.

44. Экономика Узбекистана. Информационно-аналитический бюллетень за январь-июнь 2015 года. Т.: Center for Economic Research, 2015 год. 24-с.;

Тенденции социально-экономического развития Узбекистана (2005-2014гг.) / под общей редакцией д.э.н. А.М.Садыкова. Т.: IFMR, 2015. 97-с.

45. O'rta-maxsus, kasb-xunar ta'limi markazi, Toshkent shahar o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi boshqarmasiga qarashli bo'lgan Toshkent moliya va iqtisodiyot kolleji hisobot ma'lumotlari.

## **5. Internet saytlari**

46. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) (O'zbekiston Respublikasi hukumat portali).

47. [www.mf.uz](http://www.mf.uz) (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi).

48. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy ba'zasi).

49. [www.publicfinance.uz](http://www.publicfinance.uz) (O'zbekistonda byudjet islohotlari loyihasi).

50. [www.stat.uz](http://www.stat.uz) (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo'mitasi).

51. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) (O'zbekiston Respublikasi axborot ta'lim tarmog'i).

52. [www.interfinance.uz](http://www.interfinance.uz) (Toshkent moliya institutining "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali).

53. [www.sciencedirect.com](http://www.sciencedirect.com) (Ilmiy maqolalar va kitoblar elektron kutubxonasi).